

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

AKADEMIYA

EKSPERT-KRIMINALISTIK
FAOLIYAT

MA‘RUZALAR KURSI

TOSHKENT–2017

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining
Tahririyat-noshirlik hay‘atida ma‘qullangan*

Mualliflar:

T. B. Mamatqulov, S. A. Nurumbetova,

Taqrizchilar:

Toshkent shahar IIBB EKM boshlig‘i **N. G‘. Ne‘matov**,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent **B. N. Rashidov**

Mamatqulov T.B.

M-94 **Ekspert-kriminalistik faoliyat:** Ma‘ruzalar kursi / T. B. Mamatqulov, S. A. Nurumbetova va boshq; Mas‘ul muharrir yuridik fanlar nomzodi, dotsent T.B.Mamatqulov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 78 b.

Ma‘ruzalar kursida O‘zbekiston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika xizmatining tizimi, tuzilishi va faoliyatining huquqiy asoslari, ekspert-kriminalistika xizmatining asosiy vazifa va funksiyalari, ekspert-kriminalistika xizmati tizimlarida nomzodlarni tanlash va shaxsiy tarkibni o‘qitish tartibi, ekspert-kriminalistika Markaziga bo‘ysunuvchi bo‘limlarning zamonaviy imkoniyatlari, Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining zamonaviy imkoniyatlari, ekspert-kriminalistika xizmatining ichki ishlar organlari boshqa xizmatlari bilan hamkorligi tushunchasi va huquqiy asoslari yoritilgan.

IIV Akademiyasining Oliy akademik kurslari va kunduzgi ta‘lim tinglovchilariga, shuningdek, IIO ekspert-kriminalistika xizmati xodimlariga mo‘ljallangan.

BBK 67.99 (5U) 94ya73

© O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan va jamiyatning barcha sohalarini to‘liq qamrab olgan islohotlarining asosiy maqsadi fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, millatlar va fuqarolar o‘rtasida o‘zaro totuvlikni saqlashga qaratilgan. Jumladan, sud-huquq sohasidagi islohotlarning ro‘yobga oshishi borasida mamlakatimizda etarli darajada qonunchilik bazasi shakllanib ulgurdi va hozirda yanada takomillashtirilmoqda. Shu o‘rinda 1996-yil 27-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining «Advokatura to‘g‘risidagi», 1998-yil 25-dekabrda «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida»gi, 2000-yil 14-dekabrda «Sudlar to‘g‘risida»gi (yangi tahriri), 2001-yil 29-avgustda «Prokuratura to‘g‘risida»gi (yangi tahriri), 2010-yil 1-iyunda «Sud ekspertiza to‘g‘risida»gi, 2012-yil 25-dekabrda «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi va shu kabi bir qator qonunlarning qabul qilinishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning insonparvarlik g‘oyalarini qamrab olganligi va islohotlarning asosiy e‘tibori inson huquqlari oliy qadriyat sifatida qaralayotganligi dunyo hamjamiyati tomonidan e‘tirof etilmoqda.

Ma’lumki, amalga oshirilayotgan barcha islohotlar mamlakatni chinakam rivoji, aholining turmush darajasining yuksalib borishi, aholining yalpi daromadlarining o‘sishi, aholining mulkchilik shakllariga ega bo‘lishi, davlat boshqaruvida fuqarolar faolligi, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining yuksalishi, davlat organlarining samarali faoliyati hamda bevosita ularning faoliyatida jamoatchilik nazorati kabi ko‘plab ijobiy ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda.

Yuqoridagi maqsadlarga erishishning asosiy omillaridan biri jamiyatda qonuniylikni ta’minlashdir. Qayd qilingan ustuvor vazifani bajarish huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudning asosiy funksiyasini

tashkil qiladi. Zero, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini huquqni muhofaza qilish organlari va sud faoliyatida keng tatbiq etish ishlarning yuritish sifatini oshiradi, jinoyat ishiga oid dalillarni o‘z vaqtida qo‘lga kiritish, jinoyat sodir etgan shaxslarni tezda aniqlash va fosh etish orqali jinoyat-protsessi vazifalarining samarali bajarilishini ta’minlaydi. «Shu ma’noda, ekspertiza bugungi kunda surishtiruv, dastlabki tergov va sud jarayonida etakchi o‘rinlardan birini egallamoqda»¹. Turli jinoiy, fuqarolik, xo‘jalik va ma’muriy ishlarda shaxs–fuqaro–davlat va xo‘jalik faoliyatini yurituvchi korxonalarining qonuniy manfaatlarini umume’tirof etilgan normalar asosida himoya qilinishida, inson huquq va erkinliklarini ta’minlashda, zarur bo‘lsa, huquqiy demokratik davlat barpo etishda sud ekspertizasi ham munosib o‘rin egallab kelmoqda.

¹ *Астанов И.Р. Жиноят ишлари бўйича экспертиза ўтказиш: назария ва амалиёт. Дисс... юрид. фан. номзод. – Т., 2010.*

1-mavzu. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IIV EKSPERT-KRIMINALISTIKA XIZMATINING TIZIMI, TUZILISHI VA FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI

Ma’ruza rejasi:

1. O‘zbekiston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika xizmatining tizimi, tuzilishi va faoliyatining huquqiy asoslari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi sud ekspertiza muassalarining tizimi, tuzilishi va faoliyatining huquqiy asoslari.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika xizmatining tizimi, tuzilishi va faoliyatining huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlarining Ekspert-kriminalistika xizmatining tizimi quyidagicha tashkil etilgan:

1. O‘zbekiston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika markazi;
2. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari negiz ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalari (Negiz (tayanch) ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalari deb – Toshkent shahar IIBB Ekspert-kriminalistika markazi, Andijon, Buxoro, Samarqand va Xorazm viloyatlari IIBlarining ekspert-kriminalistika bo‘limlari belgilangan);
3. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining (QR IIV, IIBB, IIB, Transportda IIB) ekspert-kriminalistika bo‘limlari (markazi);
4. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organi shahar, tuman Ekspert-kriminalistika bo‘linma (guruh)lari;
5. IIV, IIBB, IIB, Transport IIB ekspert-kriminalistika Markazi, bo‘limi qoshidagi shaxsni identifikatsiyalash avtomatlashtirilgan tizimi bo‘limi, bo‘linmasi, guruhi.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika xizmati quyidagi tarkibiy tuzilmalar: *yuqori, o‘rta va quyi bo‘g‘inlardan tashkil topgan.*

1. Ushbu xizmatlarning yuqori bo‘g‘ini hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika markazining tashkiliy tuzilishida quyidagi tarkibiy bo‘lim va bo‘linmalar mavjud:

– EKM boshlig‘ining bevosita rahbarligi ostida:

- 1) tashkiliy-uslubiy bo‘lim;
- 2) devonxona;

– EKM boshlig‘i o‘rinbosarining rahbarligi ostida:

- 1) kriminalistik ekspertiza va hisoblar bo‘limi;
- 2) kriminalistika vositalarini qo‘llash va joriy etish bo‘linmasi;

– EKM boshlig‘i o‘rinbosari – maxsus tadqiqotlar bo‘limining, EKMga bo‘ysunuvchi bo‘linmalar boshlig‘ining rahbarligi ostida:

- 1) maxsus tadqiqotlar bo‘limi;
- 2) Shaxsni identifikatsiyalash avtomatlashtirilgan tizimi (SHIAT – ASIL) bo‘limi.

2. Ekspert-kriminalistika xizmatining *o‘rta bo‘g‘iniga* O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari negiz ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalari (Toshkent shahar IIBB Ekspert-kriminalistika markazi, Andijon, Buxoro, Samarqand va Xorazm viloyatlari IIBlarning ekspert-kriminalistika bo‘limlari) hamda O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining (QR IIV, IIBB, IIB, Transportda IIB) ekspert-kriminalistika bo‘limlari (markazi)lari kiradi.

Ushbu o‘rta bo‘g‘in Ekspert-kriminalistika xizmatining tashkiliy tuzilishi:

- Tashkiliy-uslubiy bo‘lim va bo‘linmalar;
- Devonxona;
- Kriminalistik ekspertizalar bo‘lim va bo‘linmalari;
- Kriminalistik hisoblarni yuritish bo‘linmalari;
- Kriminalistika vositalarini qo‘llash va joriy etish guruhleri (inspektori);
- Maxsus tadqiqotlar bo‘lim va bo‘linmalari;
- Shaxsni identifikatsiyalash avtomatlashtirilgan tizimi (SHIAT – ASIL) bo‘lim va bo‘linmalari.

3. Ekspert-kriminalistika xizmatining *quyi bo‘g‘iniga* O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organi shahar, tuman Ekspert-kriminalistika bo‘linma (guruh)lari kiradi. Ushbu quyi bo‘g‘in Ekspert-kriminalistika xizmatining tashkiliy tuzilishi:

- tashkiliy-uslubiy bo‘lim va bo‘linmalar;
- devonxona;
- kriminalistik ekspertizalar bo‘lim va bo‘linmalari
- kriminalistik hisoblarni yuritish bo‘linmalari;
- kriminalistika vositalarini qo‘llash va joriy etish guruhleri (inspektori);
- maxsus tadqiqotlar bo‘lim va bo‘linmalari;
- Shaxsni identifikatsiyalash avtomatlashtirilgan tizimi (SHIAT – ASIL) bo‘lim va bo‘linmalari.

O‘zbekiston Respublikasi IIV tizimdagi ekspert-kriminalistika xizmati quyidagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan o‘z faoliyatini olib boradi:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
2. O‘zbekiston Respublikasining kodekslari:

- O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.

3. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari:

– O‘zbekiston Respublikasining «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o‘tkazilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonuni;

– O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 1-iyundagi «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi Qonuni;

– O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 1-iyundagi «Sud ekspertizasi to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonuni;

– O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 13-dekabrda «Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida»gi Qonuni;

– O‘zbekiston Respublikasining «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida» 2012-yil 25-dekabrda Qonuni va boshqalar.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaror, Farmon va Farmoyishlari:

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustda «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o‘tkazish to‘g‘risida»gi Farmoni;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi Qarori;

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari:

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi sud ekspertizalari muammolari bo‘yicha Kengash faoliyatini tashkil etish haqida»gi Qarori;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat sud eksperti sifatida attestatsiya o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnomani tasdiqlash haqida»gi Qarori;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat sud ekspertlarining hayoti va sog‘ligini majburiy davlat sug‘urtasi to‘g‘risidagi Yo‘riqnomani tasdiqlash haqida»gi Qarori;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «davlat sud ekspertiza muassasasi yoki boshqa tashkilot, korxonalar va muassasalarda sud ekspertizalarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Namunaviy Nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi IIVning buyruqlari:

– O‘zbekiston Respublikasi IIVning «O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining «O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida tergov ishini tashkil qilish to‘g‘risida»gi buyrug‘i;

– O‘zbekiston Respublikasi IIVning «Tergov faoliyatini tashkil etishda shaxsiy tarkib bilan ishlash bo‘yicha ayrim masalalar to‘g‘risida»gi buyrug‘i;

– O‘zbekiston Respublikasi IIVning «Ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistik bo‘linmalarini faoliyatini samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi buyrug‘i va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi sud ekspertiza muassasalarining tizimi, tuzilishi va faoliyatining huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomli Respublika sud ekspertiza markaziga, 1950-yil 30-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent ilmiy-tadqiqot kriminalistik laboratoriyasi yaratilishi bilan asos solingan hamda ushbu laboratoriya o‘z faoliyatini 1951-yil 1-iyundan boshlagan. Ushbu laboratoriyaning birinchi rahbari tajribali kriminalist Minovar Umarov edi. 1953-1956-yillarda laboratoriyani Vali Umarovich Umarov boshqargan.

1958-yil 1-aprelda akademik X.Sulaymanovanning tashabbusi bilan ushbu laboratoriya negizida Toshkent ilmiy-tadqiqot sud ekspertiza instituti tashkil etilgan. Ushbu institutning birinchi rahbari Vali Umarovich Umarov edi. So‘ng institutni uzoq yillar davomida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Boris Ilich Pinxasov boshqargan.

O‘z tarkibida dastlab 29 xodimga ega bo‘lgan institut keyinchalik texnik bazasini mustahkamladi, yangi turdagi ekspertizalarni o‘tkazishga asos solindi hamda Respublika mintaqalarida maxsus bo‘limlar tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach sud-ekspertlik faoliyatini takomillashtirish, ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish va odil sudlovni ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 22-iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi ekspertiza xizmatini rivojlantirish to‘g‘risi»dagi Qarori bilan,

Toshkent ilmiy-tadqiqot sud ekspertiza instituti Respublika ilmiy-tadqiqot kriminalistika markaziga aylantirildi.

2013-yilda esa ushbu markaz Respublika sud ekspertiza markazi deb qayta nomlandi va shu bilan birga markazga O‘zbekiston Respublikasida sud ekspertizalari bo‘yicha ilmiy-metodik va muvofiqlashtiruvchi organ maqomi berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomli Respublika sud ekspertiza markazining tuzilishi:

1. Rahbariyat:

– O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomli Respublika sud ekspertiza markazi direktori;

– O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomli Respublika sud ekspertiza markazi direktorining o‘rinbosari;

– O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomli Respublika sud ekspertiza markazi Ilmiy kotibi;

– nazorat-metodik bo‘limi;

2. Bosh laboratoriyalar:

– hujjatlarning kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi;

– sud-fonoskopik ekspertizasi laboratoriyasi;

– sud ballistika va trasologik ekspertizalari laboratoriyasi;

– materiallar, moddalar va mahsulotlarning kimyoviy ekspertizasi laboratoriyasi;

– sud-avtotexnik ekspertizasi laboratoriyasi;

– odam DNKsi ekspertizasi laboratoriyasi;

– sud-iqtisodiy ekspertizasi laboratoriyasi (bo‘limi);

– sud-qurilish-texnik ekspertizasi laboratoriyasi (bo‘limi);

3. Ma‘muriy bo‘limlar:

– kanselyariya;

– kutubxona;

– arxiv;

– kadrlar bo‘limi;

– buxgalterlik hisobi va nazorat bo‘limi;

– markazlashgan ta‘minoti bo‘limi;

4. Mintaqaviy bo‘linmalar:

– Samarqand viloyatlararo (Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlari uchun) bo‘linma;

– Farg‘ona viloyatlararo (Farg‘ona va Namangan viloyatlari uchun) bo‘linma;

– Sirdaryo viloyatlararo (Sirdaryo, Jizzax viloyatlari uchun) bo‘linma;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘linmasi;
- Qashqadaryo viloyatlararo (Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari uchun) bo‘linmasi;
- Andijon viloyati bo‘linmasi;
- Xorazm viloyati bo‘linmasi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomli Respublika sud ekspertiza markazining tizimi:

Hozirgi kunda markazning bosh laboratoriyalari va asosiy bo‘limlari, shuningdek viloyatlar bo‘linmalarida 54 ta turdagi ekspertiza ixtisosligi bo‘yicha tadqiqotlar olib boriladi, keng ko‘lamli muammolar bo‘yicha ilmiy izlanishlar va profilaktik ishlar faol o‘tkaziladi. Muntazam ravishda ekspertiza xizmatining tashkiliy takomillashtirish hamda sud ekspertizalarining imkoniyatlarini yanada yuksaltirishga qaratilgan ishlar olib boriladi.

Respublika sud ekspertiza markazida, sud ekspertiza xizmati faoliyatining me‘yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish olib boriladi. Tashkiliy tuzilishi (strukturasi)ning o‘zgarishi, shuningdek yuklatilgan qo‘shimcha vazifalarning ijrosini ta‘minlash maqsadida Markazning Nizomi yangi tahrirda tayyorlangan va tasdiqlangan.

Markazning mintaqaviy bo‘linmalarining Nizom va tashkiliy tuzilishi (strukturasi) joylarda maxsus bilimlardan foydalanish bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib qayta ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomli Respublika sud ekspertiza markazi quyidagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan o‘z faoliyatini olib boradi:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
2. O‘zbekiston Respublikasining kodekslari:
 - O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi;
 - O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
3. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari:
 - O‘zbekiston Respublikasining «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o‘tkazilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonuni.

– O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 1-iyundagi «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi Qonuni.

– O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 1-iyundagi «Sud ekspertizasi to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston

Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni.

– O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 13-dekabrda «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonuni.

– O'zbekiston Respublikasining «Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida» 2012-yil 25-dekabr Qonuni va boshqalar;

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaror, Farmon va Farmoyishlari:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Qarori;

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari:

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi sud ekspertizalari muammolari bo'yicha Kengash faoliyatini tashkil etish haqida»gi Qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat sud eksperti sifatida attestatsiya o'tkazish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomani tasdiqlash haqida»gi Qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat sud ekspertlarining hayoti va sog'ligini majburiy davlat sug'urtasi to'g'risidagi Yo'riqnomani tasdiqlash haqida»gi Qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «davlat sud ekspertiza muassasasi yoki boshqa tashkilot, korxonalar va muassasalarda sud ekspertizalarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Namunaviy Nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi faoliyatini yanada takomillashtirish haqida»gi Qarori;

6. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining buyruqlari va normativ-huquqiy hujjatlari:

– O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining sud-ekspertiza muassasalarida sud ekspertizalarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnoma;

– X.Sulaymanova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi haqidagi Nizom;

– O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining «Sud ekspertiza markazi mintaqaviy bo'linmalarining xizmat ko'rsatish hududlarini aniqlash haqida»gi buyrug'i va boshqalar.

2-mavzu. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IIV EKSPERT-KRIMINALISTIKA XIZMATINING ASOSIY VAZIFA VA FUNKSIYALARI

Ma’ruzaning rejasi:

1. O‘zbekiston Respublikasi IIV ekspert-kriminalistika xizmatining asosiy vazifalari.
2. O‘zbekiston Respublikasi IIV ekspert-kriminalistika xizmatining tashkiliy-uslubiy va huquq ijodkorligi faoliyati masalalari bo‘yicha funksiyalari.
3. O‘zbekiston Respublikasi IIV ekspert-kriminalistika xizmatining jinoyatchilikka qarshi kurashning texnik-kriminalistik ta’minoti bo‘yicha funksiyalari.
4. O‘zbekiston Respublikasi IIV ekspert-kriminalistika xizmatining kadrlar bilan ishlash hamda ilmiy-tadqiqot ishlari va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari masalalari bo‘yicha funksiyalari.

O‘zbekiston Respublikasi iiv Ekspert-kriminalistika xizmatining asosiy vazifalari

O‘zbekiston Respublikasi IIV ekspert-kriminalistika xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Barcha darajalardagi Ekspert-kriminalistika xizmatining asosiy vazifasi tezkor va jinoiy ishlar bo‘yicha jinoyatlarning oldini olish, fosh etish va tergov qilishning texnik-kriminalistik yuritilishi davomida tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlarini ilmiy-texnik vositalar va usullar bilan ta’minlashdir.

Ekspert-kriminalistika xizmati faoliyatidagi asosiy vazifaning amalga oshirilishi unga bo‘ysunuvchi quyidagi vazifalar majmui asosida amalga oshiriladi:

- ekspert-kriminalistika xizmati va uning quyi bo‘linmalari kuchlari va vositalarini boshqarish yuzasidan tashkiliy-uslubiy va nazorat-kuratori tadbirlarini amalga oshirish;
- ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalari faoliyatini me’yoriy-huquqiy tartibga solishni ta’minlash yoki unda ishtirok etish;
- ekspert-kriminalistika xizmati kadrlarini tanlash, joy-joyiga qo‘yish va tarbiyalash, yuqori malakali o‘zagini hamda tegishli ma’naviy-ish fazilatlarini shakllantirish maqsadida ularni o‘qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlashga oid choralar majmuini amalga oshirish;

– ekspert-kriminalistika xizmati moddiy-texnik ta'minotini O'zbekiston Respublikasi IIV moliyalashtiruvchi va ta'minlovchi xizmatlari bilan o'zaro faoliyatda tashkil etish, sanitariya-ishlab chiqarish me'yorlarining talablariga muvofiq ish mehnat sharoitlarini yaxshilashga yordam ko'rsatish;

– ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni tashkil etish va o'tkazish, ishning ilg'or shakllari va usullarini umumlashtirish, tahlil etish va tarqatish, ratsionalizatorlik va kashfiyotchilik faoliyatini tashkil etish va unga yordam ko'rsatish.

O'zbekiston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika xizmatining tashkiliy-uslubiy va huquq ijodkorligi faoliyati masalalari bo'yicha funksiyalari

Ekspert-kriminalistika xizmatining tashkiliy-uslubiy faoliyat masalalari bo'yicha funksiyalari:

– O'zbekiston Respublikasi IIV tizimidan, shuningdek boshqa vazirliklar va idoralardan kelib tushayotgan, respublika ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistika xizmatiga daxldor hujjatlarni va materiallarni o'rganish va javob berish hujjatlarini tayyorlash;

– o'z quyi bo'linmalari faoliyatini mintaqaviy va yo'nalishli kuratorligini amalga oshirish;

– respublika ichki ishlar idoralarining tezkor-xizmat faoliyatini ekspert-kriminalistika xizmati yo'nalishi bo'yicha inspektorlik va nazorat tekshiruvlarida ishtirok etish, O'zbekiston Respublikasi IIV MIB bilan birgalikda respublika ichki ishlar idoralarining nazorat-taftish tekshiruvlarida ishtirok etish;

– ham ekspert-kriminalistika bo'lim va bo'linmalari, ham O'zbekiston Respublikasi IIVning boshqa apparatlarining tashabbusiga ko'ra jinoyatchilikka qarshi kurashning texnik-kriminalistik ta'minoti bilan bog'liq ayrim masalalarni o'rganishda manfaatdor xizmatlar bilan birgalikda ishtirok etish;

– quyi EKBlarning hisobot davri uchun ish natijalarini umumlashtirish, o'z quyi bo'linmalaridan kerakli ma'lumotlarni olish;

– ichki ishlar idoralari rahbariyatining ekspertlik xizmatining faoliyatiga oid buyruqlari, rejali tadbirlari, farmoyishlari va ko'rsatmalarini bajarish yoki bajarilishini tashkil etish;

– bo‘ysunuvchi bo‘linmalarining tezkor-xizmat faoliyatining holatini tahlil qilish asosida EKBB ishini takomillashtirishga qaratilgan takliflarni O‘zbekiston Respublikasi IIV kollegiyasida, idoraning rahbariyati tomonidan ko‘rib chiqish uchun, idoraning asosiy tadbirlari rejasiga yoki boshqa maqsadli rejalarga kiritish uchun tayyorlash;

– EKBBning muammoli masalalarni hal etish bo‘yicha tegishli tadbirlar rejalarni ishlab chiqish, ularning to‘liq hajmida va belgilangan muddatlarda bajarilishi ustidan nazorat qilish;

– ichki ishlar idoralarining boshqa xizmatlari va bo‘linmalarining yo‘nalishlari bo‘yicha ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalari vakolatlari qismida hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

– ekspertlik faoliyatini uning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi IIV apparatlari, respublika ichki ishlar idoralari, boshqa vazirliklari va idoralarining ekspertlik muassasalari, O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ilmiy-amaliy muassasalari va tashkilotlari, o‘quv yurtlari bilan o‘zaro faoliyatni amalga oshirish;

– O‘zbekiston Respublikasi IIB quyi ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalariga tashkiliy-uslubiy masalalar bo‘yicha yordam ko‘rsatish.

Ekspert-kriminalistika xizmatining huquq ijodkorligi faoliyati masalalari bo‘yicha funksiyalari:

– respublika ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistika xizmatining tezkor-xizmat faoliyatini va xizmatning ishini tartibga soluvchi amaldagi me‘yoriy bazani tahlil qilish asosida uning yangi me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, amaldagi buyruqlar, qo‘llanmalar, yo‘riqnoma-lar, nizomlar va boshqalarni qayta ishlash yoki bekor qilish zarur bo‘lgan faoliyati yo‘nalishlarining ro‘yxatini aniqlash;

– boshqa davlatlarning ekspert-kriminalistika xizmatlari (yoki shunga o‘xshash tuzilmalari) faoliyatini tartibga soluvchi me‘yoriy-uslubiy hujjatlarni o‘rganish;

– ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalari yo‘nalishi bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va ularni tegishli instansiyalarga ekspertiza qilishga, keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi IIV manfaatdor apparatlari va boshqa vazirliklar va idoralar bilan (zarur hollarda) kelishish uchun yuborish. Zarur hollarda ushbu hujjatlarni ishlab chiqish uchun manfaatdor xizmatlar, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, respublika ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalarining vakolatli mutaxassislari jalb etiladi, boshqa turdosh muassasalarning mutaxassislari bilan maslahatlashadi;

– O‘zbekiston Respublikasi IIV boshqa xizmatlari yo‘nalishi bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni O‘zbekiston Respublikasi IIV tizimining ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalari faoliyatiga daxldor qismida ishlab chiqishda yoki taqriz yozishda ishtirok etish;

– O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarini xizmat vakolatlari qismida ishlab chiqishda yoki taqriz yozishda ishtirok etish;

– respublika ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalariga me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda yordam ko‘rsatish.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika xizmatining jinoyatchilikka qarshi kurashning texnik-kriminalistik ta‘minoti bo‘yicha funksiyalari

Ekspert-kriminalistika xizmatining jinoyatchilikka qarshi kurashning texnik-kriminalistik ta‘minoti bo‘yicha funksiyalari:

Ashyoviy dalillarning ekspertizalari va tadqiqotlarini o‘tkazish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha:

– respublika ichki ishlar idoralarining manfaatdor xizmatlari va bo‘linmalari bilan birgalikda tezkor-tergov amaliyotining muayyan ashyoviy dalillarning ekspertlik tadqiqotiga ehtiyojlarini o‘rganish, shu asosda yangi ekspertiza turlarini tashkil etish, mavjudlarini qayta tashkil etish zarurligini, buning uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik vositalar va ixtisoslashgan mutaxassis-ekspertlar sonini aniqlash;

– kriminalistik ekspertiza laboratoriyalarini tegishli moddiy-texnik vositalar, maxsus uslubiy adabiyotlar va axborot-ma‘lumot materiallari bilan ta‘minlashni, ekspert kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etish;

– O‘zbekiston Respublikasi IIV rahbariyatiga ashyoviy dalillarning ekspertlik tadqiqotining to‘liqligi va samaradorligini oshirish, yangi ekspertiza turlarini tashkil etish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

– ekspertlik xulosalariga taqriz yozish, ekspertlarning odatiy xatolari bo‘yicha sharhlarni tayyorlash, xatolarga yo‘l qo‘ygan ekspertlarning malakasini oshirishni tashkil etish yoki ekspertni mazkur ekspertiza turini mustaqil bajarish huquqidan mahrum qilish haqidagi masalani hal etish;

– o‘z negizida yoki Negiz (tayanch) ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalarida va ichki ishlar idoralarining o‘quv yurtlarida, shuning-

dek O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning turdosh muassasalarida ekspert-kriminalistlarning malakasini oshirishni va qayta tayyorligini, jumladan O‘zbekiston Respublikasi IIV EKM etakchi ekspertlar ishtirokida tashkil etish;

– O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning turdosh (rodstvenn) ekspert-kriminalistika (yoki shunga o‘xshash) tuzilmalari bilan ekspertlik tadqiqotlarini bajarish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha o‘zaro faoliyatni, bunday o‘zaro faoliyatning qabul qilingan me‘yorlari va tartibiga muvofiq tashkil etish (shartnomalar, bitimlar, tomonlarning o‘zaro kelishuvi va boshqalar);

– o‘z quyi tuzilmalariga ekspertlik tadqiqotlarini tashkil etish, eksperti-zalarning murakkab turlarini, jumladan joyiga chiqish bilan bajarishda yordam ko‘rsatish, shuningdek ekspertlik tadqiqotlarining muayyan turlari bo‘yicha yo‘nalishli nazoratni amalga oshirish;

– tezkor-tergov va ekspertlik amaliyotlarining ehtiyojlari asosida ekspertlik tadqiqotlarini bajarish bo‘yicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish, ayni shu maqsadlarda O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning turdosh muassasalari, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi o‘quv va ilmiy-amaliy muassasalari va tashkilotlari bilan o‘zaro faoliyat yuritish;

– boshqa davlatlarning ekspert-kriminalistika tuzilmalariga ularning ekspertlik kadrlarining malakasini oshirish, O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralarining ish tajribasini qabul qilingan me‘yorlar asosida belgilangan tartibga muvofiq o‘rganish;

– ashyoviy dalillarning ekspertlik tadqiqoti masalalari bo‘yicha o‘quv seminarlari va anjumanlarini tashkil etish va o‘tkazish, shu kabi yig‘ilishlar, seminarlar va shu kabilarda ularning tashkilotchilarining taklifiga ko‘ra ishtirok etish;

Ekspert-kriminalistika xizmatining kriminalistik hisoblar, kartotekalar va kolleksiyalarni tashkil etish va yuritish bo‘yicha funksiyalari:

– tezkor-tergov va ekspertlik amaliyotlarining ehtiyojlarini tahlil qilish asosida respublika ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalarining barcha darajalari uchun ekspert-kriminalistik hisoblar, kartotekalar va kolleksiyalarni tashkil etish zaruratini aniqlash, ularning ishlashi uchun zarur bo‘lgan me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, kerakli moddiy-texnik bazani aniqlash;

– respublika markazlashtirilgan ekspert-kriminalistik hisoblar, kartotekalar va kolleksiyalarni: ochilmagan jinoyatlar voqea joylarda olingan

o‘qlar, gilzalar va patronlar; qalbaki qog‘oz va metall pullar; poligrafiya vositalari yordamida tayyorlangan qalbaki hujjatlar; narkotik vositalar va psixotrop moddalar; o‘qotar, pnevmatik, sovuq qurol; portlash-texnik va pirotexnik buyumlar; daktiloskopik va boshqa kerakli hisoblar, kartotekalar va natural kolleksiyalarni yuritish;

– chet el davlatlarida bunday hisoblar, kartotekalar va kolleksiyalarni yuritish bo‘yicha ish tajribasini o‘rganish;

– respublika ichki ishlar idoralarining manfaatdor xizmatlari va bo‘linmalari uchun ma‘lumot xatlari, sharhlar, yo‘naltiruvchi axborotlarni tayyorlash;

– boshqa davlatlarning o‘xshash hisoblari, kartotekalari va kolleksiyalari bilan belgilangan tartibda o‘zaro faoliyat yuritish;

– bunday hisoblar, kartotekalar va kolleksiyalar bilan ishlaydigan ekspert kadrlarini, boshqa manfaatdor xizmatlar va bo‘linmalarning xodimlarini o‘qitish;

– respublika ichki ishlar idoralarining manfaatdor xizmatlari va bo‘linmalari bilan o‘zaro faoliyat asosida hisoblar, kartotekalar va kolleksiyalarning ishlash samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflarni tayyorlash;

– o‘z quyi tuzilmalariga hisoblar, kartotekalar va kolleksiyalarni tashkil etish va ishlashi bo‘yicha yordam ko‘rsatish.

Ekspert-kriminalistika xizmatining boshqa tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlarini ta‘minlash bo‘yicha funksiyalari:

– tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlarini ilmiy-texnik vositalar va usullar bilan ta‘minlash jihatidan tezkor-tergov amaliyotini tahlil qilish, uning asosida respublika ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalari tomonidan bu ishni takomillashtirish tadbirlari ishlab chiqish;

– tergov bo‘linmalari va tezkor xizmatlar bilan ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalari mutaxassislarining tezkor-tergov tadbirlarda ishtirok etishining yakuniy natijasini oshirish maqsadida o‘zaro faoliyat yuritish;

– respublika ichki ishlar idoralarida va chet el davlatlarining shunga o‘xshash tuzilmalarida bunday ishlashning ijobiy tajribasini o‘rganish va uni ekspertlik amaliyotiga joriy etishga oid tavsiyalarni tayyorlash;

– ushbu ishni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish va O‘zbekiston Respublikasi IIV rahbariyatiga ko‘rib chiqish uchun kiritish;

– tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlarida bevosita ishtirok etish;

– o‘z quyi tuzilmalariga amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatish, shu jumladan o‘qitish masalalari.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika xizmatining kadrlar bilan ishlash hamda ilmiy-tadqiqot ishlari va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari masalalari bo‘yicha funksiyalari

Ekspert-kriminalistika xizmatining kadrlar bilan ishlash bo‘yicha funksiyalari:

– respublika ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalari ekspert kadrlarining holatini barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha tahlil qilish;

– O‘zbekiston Respublikasi IIV manfaatdor apparatlari bilan birgalikda respublika ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalari kadrlar apparatini takomillashtirishga, shu jumladan tarkibiy qayta tashkil etish, o‘qitish, tegishli malakali kadrlarga ehtiyojga oid takliflarni ishlab chiqish va O‘zbekiston Respublikasi IIV rahbariyatiga ko‘rib chiqish uchun kiritish;

– IIV IIBB IIB Transport IIB SHTBIX bilan birgalikda respublika ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalari xodimlarining malakasini oshirish, qayta tayyorlash, boshlang‘ich tayyorgarligi, jangovar va xizmat tayyorgarligi tizimida o‘qitish, buning uchun O‘zbekiston Respublikasi IIV EKB, respublika ichki ishlar idoralarining negiz (tayanch) ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalari, O‘zbekiston Respublikasi va chet el davlatlarining turdosh ekspertlik va ilmiy-o‘quv muassasalari, O‘zbekiston Respublikasi IIV tizimining Akademiyasi va boshqa o‘quv yurtlari imkoniyatlarini jalb etish;

– ekspertlik amaliyotining dolzarb muammolari bo‘yicha seminar-yig‘ilishlarni tashkil etish va o‘tkazish;

– shu jihatdan, O‘zbekiston Respublikasi va chet el davlatlarining turdosh ekspertlik muassasalari bilan o‘zaro faoliyat yuritish;

– o‘z negizida yoki respublika ichki ishlar idoralarining boshqa ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalarida o‘qitishning tashabbuskori bo‘lgan davlat bilan o‘rnatilgan o‘zaro munosabatlarning tartibiga muvofiq boshqa davlatlar ekspertlik bo‘linmalarining xodimlarini o‘qitishni tashkil etish.

Ekspert-kriminalistika xizmatining xizmatning moddiy-texnik ta‘mini masalalari bo‘yicha funksiyalari:

– respublika ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalari va Markazning ish hajmlari va yo‘nalishiga muvofiq moddiy-texnik ta‘minlanganligi va ish joylarining holatini tahlil qilish;

– O‘zbekiston Respublikasi IIB rahbariyatiga xizmatni kerakli vositalar bilan ta‘minlash yuzasidan takliflarni tayyorlash;

– ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalarini jihozlash uchun moddiy-texnik vositalar uchun buyurtmalarni tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi IIV MTTB ga yuborish;

– respublika ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalari ish joylarini sanitariya-texnik me‘yorlarning talablariga muvofiq yaxshilashga yordam ko‘rsatish;

– umuman xizmatni kerakli vositalar bilan jihozlash maqsadida savdo qiluvchi tashkilotlar, firmalar va hokazolar bilan o‘zaro faoliyat, ularni sotib olish uchun kontraktlar va shartnomalar loyihalarini ishlab chiqish;

– respublika ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalari uchun moddiy-texnik vositalar uchun belgilanib berilishi tabellarini va me‘yorlarini ishlab chiqish;

– moliyaviy-iqtisodiy bo‘linmalar bilan birgalikda respublika ichki ishlar idoralarining nazorat-taftish tekshiruvlarida vakolatlari doirasida moddiy-texnik vositalarning hisobi, saqlanishi, hisobdan chiqarish qoidalariga amal qilish va ishlatilishi samaradorligini o‘rganish qismida ishtirok etish;

– EKB qurollanishida bo‘lgan texnikaning texnik ishlatilishi, metrologiyasi va ta‘mirlanishi tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

Ekspert-kriminalistika xizmatining ilmiy-tadqiqot ishlarining masalalari bo‘yicha funksiyalari:

– tezkor-tergov va ekspertlik amaliyotining yangi uslubiyotlar, dasturiy tizimlar, maxsus dasturlar va boshqa materiallar va vositalarni ishlab chiqishga ehtiyojlarini tahlil qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarining ijrochilarini aniqlash;

– O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning turdosh ekspertlik va yoki shunga o‘xshash tuzilmalarida bunday ish tajribasini o‘rganish va ular bilan birgalikdagi ishlarni, ilmiy-amaliy anjumanlar, seminarlar va shu kabilarni o‘tkazishda o‘zaro faoliyat yuritish;

– O‘zbekiston Respublikasi IIV tizimi manfaatlarida ilmiy-amaliy institutlar, muassasalar, korxonalar va tashkilotlar bilan o‘zaro faoliyat yuritish;

- O‘zbekiston Respublikasi IIV rahbariyati tanlagan mavzular bo‘yicha bevosita ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish. Zarur hollarda bu maqsadlarda O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi va boshqa xizmatlari va bo‘linmalarining xodimlarini, boshqa vazirliklar, idoralar, muassasalar, tashkilotlar va shu kabilarning ilmiy-amaliy xodimlarini, jumladan bunday ishlarni ulushli asosda o‘tkazish uchun jalb qilish;
- ekspertlik amaliyotining dolzarb muammolari bo‘yicha ilmiy-amaliy seminarlarni tashkil etish va o‘tkazish;
- o‘z xizmati yo‘nalishi bo‘yicha ratsionalizatorlik va kashfiyotchilik faoliyatini tashkil etishda ishtirok etish va unga yordam ko‘rsatish.

3-mavzu. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR ORGANLARI EKSPERT-KRIMINALISTIKA XIZMATINING ISH FAOLIYATI

Ma’ruzaning rejasi:

1. Ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika xizmatining ishini tashkil etish asoslari va rejalashtirish.
2. Ekspert-kriminalistik bo‘lim va bo‘linmalarining jinoyatlarni sodir etishga ko‘maklashuvchi sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishda ishtirok etishi (profilaktik ishlar).

Ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika xizmatining ishini tashkil etish asoslari va rejalashtirish

Ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalarining ishi O‘zbekiston Respublikasi IIV tomonidan belgilangan tartibda rejalashtiriladi.

EKB ish rejaları faoliyatning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini (boblarni) ko‘zda tutishi lozim:

- tashkiliy-uslubiy masalalar;
- tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlarining texnik-kriminalistik ta‘minoti;
- kadrlar bilan ishlash masalalari;
- moddiy-texnik ta‘minot, ish joylarini takomillashtirish masalalari.

Rejalarni ishlab chiqish asoslari quyidagilardir:

- tezkor-xizmat faoliyatini tahlil qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashning texnik-kriminalistik ta‘minoti bo‘yicha salbiy holatlar va nuqsonlarni aniqlash;
- boshqa xizmatlar va bo‘linmalar ishtirokida me‘yoriy hujjatlarni reja asosida tayyorlash;
- rejali va rejadan tashqari tekshiruvlar, kuratorlik (mintaqaviy va chiziqli), (amaliy va tashkiliy-uslubiy) yordam ko‘rsatish;
- EKB va boshqa xizmatlar va bo‘linmalar uchun xizmat faoliyatining yo‘nalishlari bo‘yicha ma‘lumot uslubiy materiallarini tayyorlash zaruriyati;
- kadrlar masalalarini hal etish zarurligi (o‘qitish, malaka oshirish, qayta tayyorlash, seminarlarni o‘tkazish, tarkibiy-shtat masalalari va hokazolar);
- moddiy-texnik ta‘minotining joriy masalalari;

– ilmiy-tadqiqot yoki konstruktorlik, kashfiyotchilik yoki ratsionalizatorlik ishlarini o‘tkazish imkoniyati va zarurligi;

– umuman idora bo‘yicha buyruq hujjatlarini va rejali tadbirlarni, boshqa xizmatlar va bo‘linmalarning EKB faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlarini bajarish zaruriyati.

Joriy lavozim majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlar rejalashtirilmaydi.

Rejalashtirilgan tadbirlarning bajarilishi uchun EKBB rahbari javobgar bo‘ladi. Rejaning har bir bandining bajarilishi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi lozim.

Ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalari ularga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarishda ilmiy-tadqiqot va boshqa muassasalarga, tashkilotlarga va korxonalariga quyidagi maqsadlarda yordam uchun murojaat qilishi mumkin:

– ekspertizalar va tadqiqotlarni bajarish, apparatura va asboblardan foydalanish davomida maslahatlar olish uchun mutaxassislarni jalb qilish;

– EKB xodimlarining malakasini oshirish (stajirovka o‘tkazish);

– ashyoviy dalillarni aniqlash, mustahkamlash va tadqiq etishning usullarini, yangi vositalari va usullarini birgalikda takomillashtirish va ishlab chiqish;

– axborot-uslubiy materiallarini tayyorlash.

**Ekspert-kriminalistik bo‘lim va bo‘linmalarining jinoyatlarni sodir etishga ko‘maklashuvchi sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishda ishtirok etishi
(profilaktik ishlar)**

Ekspert-kriminalistik bo‘lim va bo‘linmalari profilaktik ishlarining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardir:

Ekspertizalarni bajarish, tergov harakatlarida ishtirok etish, tezkor-qidiruv bo‘linmalarining topshiriqlari bo‘yicha kriminalistik vositalar va usullarni qo‘llashni tahlil etish va umumlashtirish asosida jinoyatlarni sodir etishga ko‘maklashuvchi sharoitlarni aniqlash.

Jinoyatchilarning texnika vositalaridan foydalanishi hamda moddiy vositalar va pullarni, jinoiy tajovuzlarning boshqa obyektlarini saqlash joylarining konstruktiv kamchiliklarini hisobga olgan holda sodir etishning ehtimoliy usullarini aniqlash;

Manfaatdor vazirliklar va idoralarning mansabdor shaxslarini hujjatlar, qimmatli qog'ozlarni qalbakilashtirish, plombalarni, yopuvchi moslamalarni ochish va shu kabilar bilan bog'liq bo'lgan jinoiy qilmishlarni faktlarini aniqlash usullariga o'rgatish.

Ayrim shaxslarning huquqqa qarshi xulqini, xo'jasizlik holatlarini mustahkamlash va namoyish etish uchun kriminalistik vositalarni qo'llash lozim bo'lganda ichki ishlar idoralarining boshqa xizmatlarining profilaktik tadbirlarida ishtirok etish.

Jinoyatlarni sodir etishga ko'maklashuvchi sharoitlar ekspertizalarni bajarishda ham ekspertizani tayinlagan shaxs yoki idoraning topshirig'iga ko'ra, ham ekspertning tashabbusiga ko'ra aniqlanishi lozim. Takliflar yozma shaklda rasmiylashtiriladi va EKX rahbariyatiga mohiyatiga ko'ra qaror qabul qilish uchun beriladi.

Ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalari xodimlarining ekspertizalarni bajarish va jinoyatlarning oldini olish maqsadida tergov harakatlariida ishtirok etishi amaliyotining tahlili va umumlashtirilishi quyidagilar bo'yicha o'tkaziladi:

Tadqiqot obyektlari (ashyoviy dalillar turlari) – himoyasi yaxshilangan, ishonchliligini oshirilgan obyektlarining doirasini aniqlash maqsadida.

Jinoyatlarni sodir etish usullari – ularni o'rganish va o'xshash usullar bilan yangi jinoyatlarni sodir etishni inkor etadigan yoki qiyinlashtiradigan, shuningdek bunday jinoyatlarni fosh etish imkoniyatini oshiradigan vositalarni ishlab chiqish maqsadida.

Ayrim xalq xo'jalik obyektlari, xalq xo'jaligi sohalari – xalq xo'jaligining ayrim sohalarida jinoyatlarni sodir etishga ko'maklashuvchi sharoitlari bartaraf etish choralarini ishlab chiqish uchun.

Jinoyatlar turlari - ma'lum jinoyatlar turlarini oldini olish uchun muhim bo'lgan tavsiyalarni ishlab chiqish uchun.

Umumlashtirish natijalari manfaatdor tashkilotlarga takliflarni tuzishda, sharhlar, maqolalar, ma'ruzalar, uslubiy qo'llanmalarda, mansabdor shaxslarning ayrim toifalari bilan ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda qo'llanadi.

Ekspertlik amaliyotining materiallarni umumlashtirish natijalari bo'yicha ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalari manfaatdor xizmatlar bilan birgalikda jinoyatlarni sodir etishga ko'maklashuvchi sharoitlarni bartaraf etish takliflarini ishlab chiqadi. Bunda taklif etiladigan choralar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- faktik materialga asoslanishi, zarur bo'lganda tajribaviy tadqiqotlar bilan tasdiqlanishi;

- iqtisodiy jihatdan maqbul bo‘lishi, ilm-fan va texnika rivojlanishining ushbu darajasida amaliy bajariladigan bo‘lishi;

- amal qiluvchi, lekin bajarilmaydigan me‘yoriy hujjatlar (qoidalar, yo‘riqnomalar, GOSTlar, texnik shartlar va hokazolar) talablarini qaytarmasligi;

- fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfsiz bo‘lishi.

Takliflarni tuzishda jinoyatlarni sodir etishga ko‘maklashuvchi aniqlangan sharoitlar haqida batafsil ma‘lumot, tavsiya etilgan choralarning asoslantirilishi beriladi. Zarur hollarda sxemalar, chizmalar, fotosuratlar ilova qilinadi.

Ekspert-kriminalistik bo‘lim va bo‘linmalari rahbari imzolagan takliflar IIV, IIBB, IIB, Transport IIB rahbariyatiga, davlat ko‘lamida qaror qabul qilishni talab etuvchi takliflar esa O‘zbekiston Respublikasi IIV EKM ga taqdim etiladi.

4-mavzu. EKSPERT-KRIMINALISTIKA XIZMATIDA TIZIMLARIDA NOMZODLARNI TANLASH VA SHAXSIY TARKIBNI O‘QITISH TARTIBI

Ma’ruzaning rejasi:

1. Ekspert-kriminalistika xizmatida ekspert-kadrlarni tanlash va o‘qitish.
2. Ekspert-kriminalistika xizmati xodimlarining Ichki ishlar organlari xodimlarini o‘qitishda ishtirok etish tartibi.
3. O‘zbekiston Respublikasi IIV Ekspertlik-malakaviy komissiyasi-ning faoliyati.

Ekspert-kriminalistika xizmatida ekspert-kadrlarni tanlash va o‘qitish

Ekspert-kriminalistik bo‘lim va bo‘linmalari xodimlarini tanlash va o‘qitish:

IIV, IIBB, IIB, Transport IIB katta ekspertlarining lavozimlariga ixtisoslashishning tasdiqlangan ro‘yxatiga muvofiq, oliy ma’lumotga va ekspert tayyorgarligiga ega bo‘lgan shaxslar qo‘yiladi. IIV, IIBB, IIB, Transport IIB ekspertlari, ichki ishlar shahar-tuman-liniyalı idoralarining katta ekspertlari lavozimlariga oliy yoki o‘rta maxsus ma’lumotga ega bo‘lgan, shaxslar qo‘yiladi, ekspert tayyorgarligiga ega bo‘lgan shaxslarga afzallik beriladi.

Istisno tariqasida katta ekspertlar va ekspertlar lavozimlariga ekspert tayyorgarligisiz oliy yoki o‘rta maxsus ma’lumotli shaxslar tayinlanishi mumkin. Bu hollarda ular ikki yil ichida yarim yillik ixtisosli tayyorgarlikdan o‘tishi va belgilangan tartibda kamida bitta ekspertiza turini bajarish huquqiga ega bo‘lishi lozim.

Bo‘sh ekspertlik lavozimlariga nomzodlarni tanlashda quyidagilarga afzallik beriladi:

- an’anaviy kriminalistik ekspertizalar turlarini bajaruvchi ekspertlar uchun: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kriminalistik ekspertizalar kafedrasining, boshqa davlatlarning o‘xshash kafedralari va fakultetlarining bitiruvchilari, respublikaning turdosh ekspertlik muassalaridan bunday ish tajribasiga ega bo‘lgan shaxslar, fiziklar, kimyogarlar, qurol bo‘yicha mutaxassislar, filologlar;

- maxsus ekspertiza turlarini bajaruvchi ekspertlar uchun ekspertizalarning mazkur turi bo‘yicha maxsus ixtisoslashtirilgan ma’lumotli shaxslar tanlanadi: fizikaviy-kimyoviy laboratoriyalar uchun – fiziklar,

kimyogarlar, farmatsevtlar, biologlar, biokimyogarlar, biofiziklar, ruda materiallari bo'yicha, mineral ashyolar, plactmacsalar, keramika, qog'oz, tekstil, lak-bo'yoq, neft-kimyoviy mahsulotlar bo'yicha va hokazolar bo'yicha mutaxassislar; oziq-ovqat laboratoriyalari uchun - oziq-ovqat mahsulotlarini va ozuqa xom ashyosini qayta ishlash texnologlari, kimyogarlar, biologlar; avtotexnik laboratoriya uchun – transport vositalar bo'yicha mutaxassislar; fonovideoskopik laboratoriya uchun – kompyuter texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar (dasturchilar, foydalanuvchilar), audio va videotexnika va yozuv sohasidagi mutaxassislar, lingvistlar; qurilish-texnika laboratoriyasi uchun – quruvchi muhandislar, loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha, qurilish texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar; elektrotexnika laboratoriyalari uchun – elektronika, elektrotexnika, radiotexnika sohasidagi mutaxassislar; sud-buxgalterlik laboratoriyasi uchun – buxgalterlar, iqtisodchilar, huquqshunoslar, auditorlar; kompyuter texnologiyalari laboratoriyasi uchun – dasturchilar, kompyuter texnologiyalari protsessorlar, elektronika bo'yicha mutaxassislar; DNK-laboratoriyasi uchun – genetika va genetik tahlil, injenerlik sohasidagi mutaxassislar.

Ekspertizalarni bajarish huquqi O'zbekiston Respublikasi IIV Ekspertlik-malakaviy komissiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi IIV EKM to'g'risidagi Nizomga muvofiq beriladi.

O'zbekiston Respublikasi IIV Ekspertlik-malakaviy komissiyasi ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalarida bajariladigan ekspertizalarning barcha turlarini bajarish huquqini ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalarining ekspertlik yoki rahbarlik lavozimlariga tayinlangan, stajirovkadan o'tgan va ko'zda tutilgan tartibda imtihon topshirgan shaxslarga beradi.

Ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalari xodimlarini o'qitish O'zbekiston Respublikasi IIVning ichki ishlar idoralarining oddiy askar va boshliq shaxsiy tarkibining kasbiy tayyorgarligi bo'yicha me'yoriy hujjatlarining talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Katta ekspertlar (ekspertlar) lavozimlariga tayinlangan, bunday tayyorgarlik yoki ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalarida amaliy ishlash tajribasiga ega bo'lmagan shaxslar majburiy tartibda ekspertlik yoki boshlang'ich tayyorgarlikdan o'tadilar. U:

- xizmat joyida bevosita boshlig'i yoki murabbiyning rahbarligi ostida mustaqil o'qish yo'li bilan;

- O'zbekiston Respublikasi IIV EKM da yoki ro'yxati O'zbekiston Respublikasi IIV tomonidan tasdiqlanadigan negiz ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalarida amalga oshiriladi.

Malaka oshirish ashyoviy dalillarni tadqiqot qilishning yangi uslubiyotlarini o'zlashtirish yoki ekspertizalarning boshqa turlarini bajarish huquqini olish uchun tashkil etiladi.

O'quv yurtlarida yig'img'lar hamda stajirovkalardan o'tish yuzasidan buyurtmalar yuqori turuvchi ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalari rahbarlariga yuboriladi.

Ekspert-kriminalistika xizmati xodimlarining ichki ishlar organlari xodimlarini o'qitishda ishtirok etish tartibi

Ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalari xodimlari ichki ishlar idoralari xodimlarining texnik-kriminalistik tayyorgarligi darajasini oshirish maqsadida ularni o'qitishda ishtirok etadilar. Mashg'ulotlar O'zbekiston Respublikasi IIV uslubiy tavsiyalariga muvofiq ishlab chiqilgan mavzular bo'yicha o'tkaziladi. Shu maqsadlarda ichki ishlar idorasining rahbariyati tomonidan tasdiqlangan rejalar bo'yicha tezkor-qidiruv va tergov bo'linmalari xodimlarining qisqa muddatli (3-5 kunlik) amaliy stajirovkalari o'tkaziladi.

Ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalarining imkoniyatlariga qarab guruhli yoki individual stajirovkalar o'tkazilishi mumkin.

O'qitishning asosiy shakli kriminalistik vositalar va usullarni qo'llashning amaliy vaziyatiga yaqinlashtirilgan sharoitlarda amaliy mashg'ulotlar bo'ladi.

Ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalari xodimlaridan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazishga boshqa vazirliklar, idoralarning mutaxassis-lari jalb etilishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlangan vazifa va funksiyalarni samarali amalga oshirish maqsadida IIV Ekspert-kriminalistika markazi rahbariyati va etakchi mutaxassislari quyi tizimlar (O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari bazaviy ekspert-kriminalistika bo'lim va bo'linmalari; ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika bo'limlari (markazi) va shahar, tuman IIB Ekspert-kriminalistika bo'linma (guruh)lari)ning ish faoliyatini muntazam ravishda o'rganib hamda tahlil qilib boradilar.

Ushbu tahlillar natijasida Ekspert-kriminalistika xizmatining quyi tizimlari faoliyatidagi shaxsiy tarkib bilan ishlash, kadrlar zaxirasini yaratish va shtat birliklarini jamlash bo'yicha quyidagi kamchiliklar kuzatilgan:

– o'rta va quyi tizimlarning shaxsiy tarkibi ish faoliyati o'rganilgan-da, xodimlarni egallab turgan lavozimi va bajaradigan xizmat vazifalari umuman to'g'ri kelmasligi aniqlandi. Masalan, «ADTT SONDA» tizimi-

da faoliyat olib borishi lozim bo'lgan bo'linma boshlig'i lavozimida kimyoviy ekspertiza o'tkazadigan xodim xizmat qiladi, maxsus tadqiqotlar bo'limi xodimlari esa kriminalistik ekspertizalar bajarish bilan shug'ullanadi va x.k. Mazkur guruhlarda xizmat vazifasiga umuman to'g'ri kelmaydigan yoki ushbu vakolatga ega bo'lmagan xodimlar faoliyat ko'rsatmoqda;

- o'rta va quyi tizimlarda shaxsiy tarkibni tarbiyalash, yakka tartibdagi tarbiyaviy suhbatlar o'tkazilishining sustligi.

- ADIT (SONDA) tizimidan samarali foydalanish maqsadida mazkur tizimdan foydalanish qoidalarini puxta egallagan xodimlar administrator yoki operator sifatida biriktirilmagan;

- hududda sodir etilib ochilmay qolgan jinoyat joylaridan olingan barmoq izlari bo'yicha chuqur tahlil o'tkazib, olingan barmoq izlari aniq hisobini chiqarilmasligi hamda ADIT (SONDA) tizimiga belgilangan tartibda kiritib borilmasligi. Shuningdek, barcha ochilmagan jinoyat joylaridan olingan barmoq izlarini respublika avtomatlashtirilgan dakti-loskopik taqqoslash tizimidan tekshirish uchun muntazam ravishda yuborilmasligi;

- ekspertlarni xizmat vazifalarini puxta egallaganliklarini o'rganilmasligi, lozim topilgan holatlarda tuman IIB EKB eksperti lavozimlariga malakali ekspert xodimlarni tayinlash masalalariga e'tibor qaratilmasligi;

- viloyat IIB Ekspert-kriminalistika bo'limlarida malakali kadrlar zaxirasini yaratilmaganligi, professional malakali xodimlarni tayyorlash maqsadida ekspert kriminalistika xizmatida boy amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan xodimlarni boshqa xizmatlarga o'tkazilishiga hanuzgacha chek qo'yilmayotganligi;

- ekspert kriminalistika xizmati lavozimlariga tavsiya etilayotgan nomzodlarni mutaxassisligi bo'yicha chuqur o'rganilgan holda lavozimlarga tayinlamaslik.

- shahar-tuman IIB boshliqlari tomonidan ekspertlarni tergov-tezkor guruhi tarkibidagi hodisa joyini ko'zdan kechirishdagi to'liq ishtirokini, sifatini, jinoyatlarni issiq izidan ochishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ashyoviy dalillarni olinishi va tegishliligi bo'yicha kriminalistik hisoblardan tekshirish uchun taqdim etilishini kunlik nazoratga olinmaganligi

- mavjud kriminalistik texnik vositalarni muntazam inventarizatsiyadan o'tkazilmasligi, nosozlarini ta'mirlash, Ekspert-kriminalistika bo'limlari omborida saqlanayotgan kriminalistik-texnik vositalardan maqsadli va samarali foydalanishni tashkil etilmaganligi;

– viloyat IIB Ekspert-kriminalistika bo‘limi boshlig‘i lavozimiga tavsiya etilgan nomzodni bo‘lim ishlarini rejalashtirish, hisobotlar tayyorlash, xodimlar kasbiy mahoratini oshirish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini muntazam tashkillashtirilmasligi.

O‘zbekiston Respublikasi IIV ekspertlik-malakaviy komissiyasining faoliyati

O‘zbekiston Respublikasi IIV Ekspertlik-malakaviy komissiyasi (EMK) O‘zbekiston Respublikasining Ichki ishlar Vazirligining Ekspert-kriminalistika markazi (EKM) qoshida ekspertizalarni mustaqil bajarish huquqini olmoqchi bo‘lgan ekspert-kriminalistlarning malakasini aniqlash maqsadida tuziladi.

Komissiyaning raisi O‘zbekiston Respublikasi IIV EKM boshlig‘i bo‘ladi. U bo‘lmagan paytda EKM boshlig‘ining o‘rinbosari rahbarlik qiladi.

Komissiya tarkibiga ushbu ekspertiza turi bo‘yicha kamida 5 yillik ish stajiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi IIV EKB xodimlari kiradi.

Zarur bo‘lganda O‘zbekiston Respublikasi IIV EKB kvorumga ega bo‘lmagan (ekspertizalarning har bir turi bo‘yicha kamida ikkita mutaxassis) ekspertizalar turlarini bajarishning etarli tajribasiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi (RSEM), Sog‘liqni saqlash vazirligi, Mudofaa vazirligining ekspertlik muassasalari, oliy o‘quv yurtlari (O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi va Yuridik institut) tegishli mutaxassislari va boshqa ixtisosli mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

Chet el ekspertlik muassasalarining mutaxassislari O‘zbekiston Respublikasi IIV EMK yig‘ilishida ishtirok etishga jalb etish lozim bo‘lganda komissiya raisi, u bo‘lmaganda esa uning o‘rinbosari kamida 10 sutka avval ushbu ekspertlik muassasasiga komissiya yig‘ilishiga taklif etiladigan mutaxassislarning kerakli ixtisosligi, ushbu mutaxassislarni komissiya ko‘rib chiqishi uchun taqdim etilgan materiallar bilan tanishtirilishining tartibi va ushbu ekspertlik muassasasining O‘zbekiston Respublikasi IIV EKM yig‘ilishiga daxldor boshqa ma‘lumotlar ko‘rsatilgan tegishli xatni yuboradi.

O‘z navbatida komissiya a‘zolari boshqa ekspertlik muassasalarining o‘xshash komissiyalari yig‘ilishlarida o‘zaro kelishilgan asosda ishtirok etishga haqlidir.

Ekspertlar guruhini O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi negizida, ichki ishlar idoralarida ekspertizalarni mustaqil bajarish huqu-

qiga ruxsatnomalar uchun tayyorlangan holda EMK imtihonlarini qabul qilish ta'lim joyiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi IIV EKM ixtisosli eksperti, komissiyaning boshlig'i yoki boshlig'ining o'rinbosari majburiy ishtirok etgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Ekspert kadrlarining kasbiy tayyorgarligi bir turda va to'liq bo'lishi maqsadida O'zbekiston Respublikasi IIV EMK raisi va uning o'rinbosari, shuningdek uning a'zolari O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining ekspertlik-malakaviy komissiyasining yig'ilishlarida ishtirok etish, ekspertlarni tayyorlash va ularga o'z vakolatlari doirasida ekspertizalarni bajarish huquqini beruvchi guvohnomalarni berish bilan bog'liq bo'lgan o'quv materiallarini o'rganish, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi negizida ekspertlik kadrlarini tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan takliflarni kiritish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasida malakali ekspertlar bo'lmagan yangi ekspertlik tadqiqotlari bo'yicha laboratoriyalar tashkil etilgan holda EMK tarkibiga tegishli muassasalar, idoralar, tashkilotlar va kompaniyalar, ITI, oliygohlar va shu kabilardan ixtisosli mutaxassislar jalb etiladi.

Komissiya tarkibi komissiya raisi tomonidan, u bo'lmaganda esa komissiya raisining o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi. Boshqa muassasalardan mutaxassislarni jalb etish ularning rahbariyati bilan kelishiladi. O'z ishida komissiya O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi IIV ning me'yoriy hujjatlari va mazkur Nizomga tayanadi. Komissiyada ish yuritish uning kotibi tomonidan yuritiladi. Komissiyaning moddiy-texnik ta'minoti O'zbekiston Respublikasi IIV EKM tomonidan amalga oshiriladi.

Asosiy vazifalari. Ekspert xulosalari sifatini oshirish, ekspertlik amaliyotiga eng yangi ilm-fan va texnika yutuqlarini joriy etish.

Quyidagi ekspertiza turlarini mustaqil bajarish huquqini olmoqchi bo'lgan ichki ishlar idoralari ekspertlarining kasbiy malakasini aniqlash: daktiloskopik, trasologik, xatshunoslik, hujjatlarni texnik tadqiqot qilish, ballistik, sovuq qurolni tadqiq etish, shaxsni portreti bo'yicha identifikatsiya qilish, kimyoviy, fizikaviy, oziq-ovqat, avtotexnik, sud-buxgalterlik, fonovideoskopik, elektrotexnik, qurilish-texnik, kompyuter texnologiyalari yuzasidan, genomli (DNK-tahlil) va bajarilishi respublika ichki ishlar idoralarida tashkil etiladigan boshqa turlari.

Materiallarni o'rganishni tashkil etish, shu jumladan ekspertlarga ekspertizalarni bajarish huquqini berish yoki bunday huquqdan mahrum qilish masalalarini hal qilish uchun komissiyaga berilgan ekspertlik xulosalariga taqriz yozish, uning asosida EMK tegishli qarorni qabul qiladi.

Mutaxassislarni joylarda, Negiz ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalarida kriminalistik ekspertizalarni bajarish huquqiga ruxsat olishga tayyorlash amaliyotini o‘rganish va umumlashtirish. Shu asosda QR IIV, IIB, Transport IIB rahbariyatiga bu ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflarni tayyorlash.

Komissiya ishining tartibi. Komissiya kamida yil choragida bir marta rais yoki uning o‘rinbosari rahbarligi ostida yig‘ilishlarni o‘tkazadi.

Ekspertlik malakaviy komissiyaning yig‘ilishi uning tarkibining kamida yarmisi hamda ushbu komissiya yig‘ilishida ko‘rib chiqilayotgan muayyan ekspertiza turi bo‘yicha qaror qabul qilishda vakolatli bo‘lgan kamida ikkita komissiya a‘zosi ishtirok etgan holda haqiqiy bo‘ladi.

Komissiyaning qarorlari oddiy ovoz ko‘pchiligi bilan, ushbu ekspertiza turi uchun javobgar bo‘lgan mutaxassislarning roziligi bo‘lgandagina qabul qilinadi hamda komissiyaga raislik qiluvchi va komissiya a‘zolari tomonidan imzolanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Komissiya kotibi yig‘ilishdan kechi bilan 15 sutka avval komissiya a‘zolariga ekspertizalarni bajarish huquqiga nomzod bo‘lgan ekspertning xulosalariga taqriz yozish, komissiya yig‘ilishida ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan boshqa materiallarni o‘rganish uchun tegishli materiallarni yuborishi lozim.

Ekspert-kriminalistlarga ekspertiza bajarish huquqi berilishi masalalarining hal qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi IIV EMK ga quyidagi materiallarni taqdim etish lozim:

– QR IIV, IIBB, IIB, Transport IIB ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmalari rahbariyatining nomzodga muayyan ekspertiza turlarini mustaqil bajarish huquqining berilishi to‘g‘risidagi iltimosnomasi.

– ekspertizalarni bajarish huquqiga nomzod bo‘lgan ekspert to‘g‘risidagi ma‘lumotlar: ekspert lavozimida ishlash staji; murabbiy ekspert bilan birgalikda bajarilgan ekspertizalarning soni, turlari bo‘yicha; bunda qo‘llangan asosiy uslubiy tavsiyalar; tugatgan o‘quv yurti yoki oliy o‘quv yurtida ta‘lim olishi; murabbiy-ekspertning fikri; o‘tgan stajirovkalari.

– ichki ishlar idoralarining negiz ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmasida yoki boshqa ekspertlik muassasasida stajirovka o‘tganligi haqidagi xulosa, bunday stajirovkadan o‘tgan holda.

– ekspert bajarish huquqini olmoqchi bo‘lgan har bir ekspertiza turi bo‘yicha kamida beshta ekspertlik xulosalarining nusxalari.

– ekspert bajarish huquqini olmoqchi bo‘lgan ekspertiza turi bilan bog‘liq mavzudagi kamida 20 bet hajmidagi referat (qo‘lyozma shaklida berilishiga yo‘l qo‘yiladi).

– ekspertda mavjud bo‘lgan ekspertizalarni bajarish huquqini beruvchi guvohnoma, ekspertizalarning boshqa turlarini bajarish huquqini olgan holda tegishli yozuvlarni kiritish uchun.

Yuqoridagi materiallarni baholash asosida komissiya nomzodni imtihonga qo‘yish to‘g‘risida yoki imtihonga qo‘yishni rad etish to‘g‘risida, qo‘shimcha materiallarni talab qilish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Imtihon natijalariga ko‘ra ekspertga ekspertizani bajarish huquqini beruvchi guvohnoma berilishi yoki bu huquqni berish rad etilishi mumkin.

Ekspertni ekspertiza bajarish huquqidan mahrum etish masalasini hal etish tashabbuskorlari O‘zbekiston Respublikasi IIV EKM yo‘nalishli (chiziqli) kuratorlari, QR IIV, IIBB, IIB, Transport IIB rahbariyati va EKB (EKM)lari bo‘lishi mumkin. Bu hollarda tashabbuskorlar komissiyaga quyidagilarni taqdim etishi lozim:

– QR IIV, IIBB, IIB, Transport IIB rahbariyatining ekspertni muayyan ekspertiza turlarini bajarish huquqidan mahrum qilish to‘g‘risidagi iltimosnoma.

– ekspertizalarni bajarishda quyidagilarning bir necha marta qo‘pol buzilishlaridan dalolat beruvchi hujjatlar: jinoiy javobgarlik yuklatuvchi jinoiy-protsessual qonunchilik talablari; katta xodimlarning ko‘rsatmalarini inkor etgan holda xato xulosalarga olib kelgan ashyoviy dalillarni tadqiq etish uslubiyotlari; turli sabablarga ko‘ra xato xulosalarning bila turib berilishi va boshqa ekspertning kasbiy yaroqsizligini isbotlovchi hujjatlar.

– ekspertning xato xulosalarining nusxalari va ekspertlarning takroriy xulosalarining nusxalari, ekspertning xato xulosalarni berganligining sabablarini tushuntirish xati bilan;

– ekspertizalarni bajarish huquqini beruvchi guvohnoma.

Komissiyaga taqdim etilgan materiallarni ko‘rib chiqishda u quyidagi qarorlardan birini qabul qilishi mumkin:

– bir yoki bir nechta ekspertizalarni bajarish huquqini berish.

– ekspertizalarni bajarish huquqini berishni rad etish.

– ekspertni avval berilgan bir yoki bir nechta ekspertiza turlarini bajarish huquqidan mahrum qilish. Bu holda QR IIV, IIB, Transport IIB rahbariyatiga komissiya yig‘ilish bayonnomasidan ekspertning ekspertizalarni bajarish huquqidan mahrum qilish to‘g‘risidagi ko‘chirma yuboriladi va ekspert-kriminalistika bo‘lim va bo‘linmasida ekspertdan keyinchalik foydalanish imkoniyati yuzasidan tavsiyalar ilova qilinadi.

– tegishli qarorni qabul qilish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha hujjatlar kelishgacha materiallarni ko‘rib chiqishni keyinga qoldirish.

Ekspertizalarni bajarish huquqiga guvohnomalarning rasmiylashtirilishi va ularning olib qo'yilishi. Ekspertizani mustaqil bajarish huquqi uchun imtihonni muvaffaqiyatli topshirgan ekspertga belgilangan namunadagi guvohnoma beriladi.

Ekspertizalarni bajarish huquqi berilishi to'g'risidagi guvohnoma belgilangan shakldagi blankada rasmiylashtiriladi, komissiya raisi va kotibi tomondan imzolanadi, O'zbekiston Respublikasi IIV EKB gerbli muhri (muhurning aksi tushirilishi) bilan tasdiqlanadi hamda komissiya kotibi yuritadigan jurnalda ro'yxatdan o'tkaziladi.

Guvohnoma shikastlangan holda va undan boshqa sababalarga ko'ra foydalanish mumkin bo'lmaganda almashtirilishi, shuningdek ekspert guvohnomada yozilgan ekspertizalarning barcha turlarini bajarishdan mahrum etilgan holda olib qo'yilishi lozim.

Olib qo'yilgan guvohnomalar yo'q qilinishi lozim, bu haqda O'zbekiston Respublikasi IIV EMK raisi va kotibining imzolari qo'yilgan dalolatnoma tuziladi hamda guvohnomalarni ro'yxatdan o'tkazish jurnalida tegishli belgi qo'yiladi.

Komissiya tomonidan ko'rib chiqilgan materiallar zarur hollarda komissiya yig'ilishlari bayonnomalaridan ko'chirmalar, ekspertizalarni bajarish huquqini beruvchi rasmiylashtirilgan guvohnomalar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining tegishli ichki ishlar idoralariga yuboriladi.

5-mavzu. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IIV EKMGA BO‘YSUNUVCHI BO‘LIMLARNING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI

Ma’ruzaning rejasi:

1. O‘zbekiston Respublikasi IIV EKMga bo‘ysunuvchi Maxsus tadqiqotlar bo‘limining asosiy vazifalari va funksiyalari.
2. Maxsus tadqiqotlar bo‘limi tomonidan maxsus usullardan foydalan-gan holda o‘tkaziladigan ekspertiza tadqiqotlarida hal etiladigan masalalar.
3. IIV, IIBB, IIB, Transport IIB Ekspert-kriminalistika markazi, bo‘limi qoshidagi Shaxsni identifikatsiyalash avtomatlashtirilgan tizimi bo‘limi (bo‘linmasi, guruhi)ning tashkiliy tuzilishi, vazifa va funksiyalari.
4. Respublika markaziy Shaxsni identifikatsiyalash avtomatlash-tirilgan tizimi (SHIAT)ning portret identifikatsiyasi bo‘yicha avtomat-lashtirilgan ish joylari (AIJ).
5. Respublika markaziy ADITning daktiloskopik identifikatsiya bo‘yicha avtomatlashtirilgan ish joylari (AIJ).

O‘zbekiston Respublikasi IIV EKMga bo‘ysunuvchi maxsus tadqiqotlar bo‘limining asosiy vazifalari va funksiyalari

O‘zbekiston Respublikasi IIV EKMga bo‘ysunuvchi Maxsus tadqi-qotlar bo‘limining asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilardan iborat:

- maxsus usullardan foydalangan holda ekspertizalarni (maxsus ekspertizalarni) bajaradi – fizikaviy-kimyoviy, avtotexnik ekspertizalar avtotrasologiya bilan, oziq-ovqat, sud-buxgalterlik, qurilish-texnik, elek-trotexnik, genom ekspertizalari (DNK-tahlil), fonovideoskopik eksperti-zalar, kompyuter texnologiyalari bo‘yicha ekspertiza;

- komissiyaviy ekspertizalarni o‘tkazishda ishtirok etadi, respublika ichki ishlar idoralari uchun takroriy va eng murakkab ekspertiza turlarini bajaradi;

- ichki ishlar idorasining manfaatdor xizmatlari va bo‘linmalari bilan birgalikda tezkor-tergov amaliyotining muayyan ashyoviy dalillarni ekspertlik tadqiq etishdagi ehtiyojini o‘rganadi va yangi ekspertiza turlarini tashkil etish, mavjud (bajariladigan) turlarini qayta tashkil etish zaruriyatini, buning uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik vositalar va shu yo‘nalishdagi mutaxassis-ekspertlar sonini aniqlaydi;

- kriminalistik ekspert laboratoriyalarini tegishli moddiy-texnik vosi-talar, maxsus uslubiy adabiyotlar va ma’lumot-axborot materiallari bilan

ta'minlashni, ekspert kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etadi;

- O'zbekiston Respublikasi IIV rahbariyatiga ashyoviy dalillarning ekspert tadqiqotlarining to'liqligi va samaradorligini oshirish, yangi ekspertiza turlarini tashkil etish bilan bog'liq masalalar bo'yicha takliflarni tayyorlaydi;

- ekspert xulosalarini taqrizdan o'tkazadi, uning asosida ekspertlarning odatiy xatolari yuzasidan sharhlarni tayyorlaydi, xatolarga yo'l qo'ygan ekspertlarning malakasini oshirishni tashkil etadi, yoki O'zbekiston Respublikasi IIV EKM ekspertlik-malakaviy komissiyasi orqali ekspertni mazkur ekspertiza turini mustaqil bajarish huquqidan mahrum etish masalasini hal etadi;

- o'z negizida yoki respublika ichki ishlar idoralarining negiz (tayanch) ekspert-kriminalistika bo'lim va bo'linmalari va o'quv markazlarida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning turdosh ekspertlik muassasalarida ekspert-kriminalistlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni, jumladan O'zbekiston Respublikasi IIV EKM etakchi ekspertlari bevosita ishtirok etgan holda tashkil etadi;

- O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning turdosh ekspert-kriminalistika tuzilmalari bilan ekspertlik tadqiqotlarini bajarish bilan bog'liq masalalar bo'yicha bunday o'zaro faoliyatning qabul qilingan me'yorlari va tartibiga muvofiq o'zaro faoliyat yuritadi (Shartnomalar, Bitimlar, Tomonlarning o'zaro kelishuvlari va hokazolar);

- O'zbekiston Respublikasi IIV manfaatdor apparatlari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi IIV rahbariyatiga ekspertlik tadqiqotlarining to'liqligi va sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlarni va takliflarni ishlab chiqadi;

- o'z quyi tizimlariga ekspertlik tadqiqotlarini tashkil etish, ekspertizalarning murakkab turlarini bajarish, jumladan joyiga chiqib bajarishda yordam ko'rsatadi, shuningdek ekspertlik tadqiqotlarining muayyan turlari bo'yicha yo'nalishli nazoratni amalga oshiradi;

- tezkor-tergov amaliyotining ehtiyojlari asosida ekspertlik tadqiqotlarini bajarish yuzasidan uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqadi, shu maqsadlarda O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning turdosh muassasalari, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi o'quv va ilmiy-amaliy muassasalari va tashkilotlari bilan o'zaro faoliyat yuritadi;

- O'zbekiston Respublikasi IIV tizimining ekspert-kriminalistika tuzilmalariga ularning ekspert kadrlarining malakasini oshirish, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistika bo'lim va

bo‘linmalari ish tajribasini o‘rganishda qabul qilingan me‘yorlar va belgilangan tartibga muvofiq yordam ko‘rsatadi;

- ashyoviy dalillar ekspertlik tadqiqotining masalalari bo‘yicha o‘quv seminarlari va anjumanlarni tashkil etadi va o‘tkazadi, shunga o‘xshash majlislar, seminarlar va shu kabilarda ularning tashkilotchilari taklifiga binoan ishtirok etadi.

Maxsus tadqiqotlar bo‘limi tomonidan maxsus usullardan foydalangan holda o‘tkaziladigan ekspertiza tadqiqotlarida hal etiladigan masalalar

Jinoiy ishlar bo‘yicha tergov harakatlarini olib borish jarayonida materiallar, moddalar va mahsulotlarning kriminalistik tadqiqoti asosan ikki shaklda olib boriladi: ashyoviy dalillarning birlamchi tadqiqoti ko‘zdan kechirish tergovchi, sud tomonidan olib borilsa, kriminalistik ekspertizalar maxsus ekspertiza muassasalarida o‘tkaziladi. Turli xildagi mikro-zarrachalarni aniqlash, obyektlarning tashqi ko‘rinish xususiyatlari bo‘yicha ajratish maqsadida o‘tkaziladigan birlamchi tadqiqotlarni bajarishda obyektlarning sarflanishiga va ularning kimyoviy va fizikaviy xususiyatlarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaydigan usullar (fotografiya, mikroskopiya, ultrabinafsha va infraqizil nurlari, oddiy kimyoviy testlar) qo‘llaniladi.

Kriminalistik texnika vositalari va usullarning asosiy qismi ushbu obyektlarning ekspertizasini bajarilish jarayonida qo‘llaniladi. Bu vositalar va usullarni uch guruhga bo‘lish mumkin:

– materiallar, moddalar va mahsulotlarning kimyoviy-fizikaviy va boshqa xossalarini o‘rganishga imkon beradigan texnik vositalari va usullar;

– taqqoslash tadqiqotlarida obyektlarning bir-biriga o‘xshashlik yoki farq qiladigan xususiyatlarini aniqlash uchun qo‘llaniladigan texnik vositalari va usullar;

– ekspert tomonidan olingan natijalarni to‘g‘ri baholash uchun ishlatiladigan usullar va texnik vositalari.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlar va kuchli ta’sir qiluvchi dorilar ekspertizasi oldiga qo‘yiladigan savollar. Ekspertiza oldiga qo‘yiladigan savollar qisqa, aniq, ekspertning bilimiga taalluqli bo‘lishi kerak. Quyida ba’zi bir savollar keltirilgan:

– voqea joyidan olingan, topilgan modda(lar) giyohvandlik vositasi (psixotrop moddasi, prekursor)mi, agar giyohvandlik vositasi (psixotrop modda) bo‘lsa, qaysi turiga mansub;

– taqdim etilgan obyektlar (shprits, igna va shisha idishlar)da narkotik yoki kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning qoldig‘i mavjudmi;

- taqdim etilgan o‘simlik qaysi turga mansub va uning tarkibida giyohvandlik vositalari bormi;
 - gumon qilinayotgan shaxsdan va uning uyidan musodara qilingan namunalar umumiy bir tur yoki turkumga mansubmi, agar shunday bo‘lsa, qaysi tur yoki turkumga taalluqli;
 - musodara qilingan moddalar umumiy manbaga (umumiy massaga) mansubmi;
 - musodara qilingan moddalar olingan, qo‘llanilgan xomashyo, o‘sgan joyi, tayyorlanishi, ishlab chiqarilish usuli va saqlash sharoiti bo‘yicha umumiy manbaga mansubmi;
 - musodara qilingan o‘simlik ma’lum bir tomorqada o‘sganmi.
- Yuqorida keltirilgan ko‘p hollarda uchraydigan savollardan tashqari jinoiy ishlar bo‘yicha tergov olib borish jarayonida boshqa savollar ham tug‘ilishi mumkin.

IIV, IIBB, IIB, Transport IIB Ekspert-kriminalistika markazi, bo‘limi qoshidagi Shaxsni identifikatsiyalash avtomatlashtirilgan tizimi bo‘limi (bo‘linmasi, guruhi)ning tashkiliy tuzilishi, vazifa va funksiyalari

Avtomatlashtirilgan shaxsni identifikatsiya qilish tizimining ishlashiga muvofiq ASHIQT va MIS xodimlariga quyidagi vazifalarni hal etish yuklatiladi:

1. Huquqbuzarlarni fotosuratlar, videoyozuvlar va boshqa portret ma’lumoti tashuvchilaridagi rasmlari bo‘yicha, fotorobotlar bo‘yicha identifikatsiya qilish, murdalarni o‘limdan keyingi tanib olish fotosuratlari bo‘yicha, jinoiy tajovuz obyektlaridan yoki voqea joyini ko‘zdan kechirish davomida olingan qo‘l barmoqlarining izlari bo‘yicha, shuningdek tirik shaxslar va murdalarning daktilokartalari bo‘yicha identifikatsiya qilish.
2. Tezkor-tergov strukturalarining xodimlari tomonidan ekspert-kriminalist oldida qo‘yilgan savollarga javoblar sifatida rasmiy hujjatlarni (ekspert xulosalari va ekspert ma’lumotnomalari) tayyorlash;
3. RMASHIQT, ASHIQT, MIS apparat-dasturiy majmualarining texnik-texnologik talablarga muvofiq ishlashini ta’minlash;
4. Shaxsni identifikatsiya qilish bo‘linmalari – RMASHIQT, ASHIQT, MIS va boshqa xizmatlarning shaxsiy tarkibini shaxsni qiyofa xususiyatlari va daktiloskopik hisob bo‘yicha identifikatsiya qilishda ASHIQT imkoniyatlarini qo‘llash masalalari bo‘yicha o‘qitish;

5. Shaxsni identifikatsiya qilish tizimlari ishini va tezkor-tergov xizmatlar va bo‘linmalar, BXCHKF bo‘linmalari, O‘zbekiston Respublikasi IIV Axborot Markazi, shuningdek boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan o‘zaro faoliyatini tahlil qilish asosida ishini takomillashtirishni ta‘minlash.

Funksiyalari:

Umumiy masalalar bo‘yicha:

- mos holda O‘zbekiston Respublikasi IIV, QR IIV, IIBB, IIB, Transport IIB tizimining, shuningdek boshqa vazirliklar, idoralar va tashkilotlarning respublika ichki ishlar idoralari ekspert-kriminalistika xizmatining faoliyati, kriminalistik hisoblar va kartotekalarni yuritishga oid hujjatlar va materiallarni o‘rganadi va tahlil qiladi;

- o‘zining quyi bo‘lim va bo‘linmalarining mintaqaviy kuratorligini amalga oshiradi;

- mustaqil tarzda va boshqa manfaatdor xizmatlar bilan birgalikda respublika ichki ishlar idorasining tezkor-xizmat faoliyatining ASHIQT yo‘nalishi bo‘yicha nazorat-kuratorlik tekshiruvlarida ishtirok etadi;

- ham O‘zbekiston Respublikasi IIV EKM tashabbusiga ko‘ra, ham idora yoki O‘zR IIV boshqa apparatlarining tashabbusiga ko‘ra manfaatdor xizmatlar bilan birgalikda jinoyatchilikka qarshi kurashning texnik-kriminalistik ta‘minoti bilan bog‘liq ayrim masalalarni o‘rganishda ishtirok etadi;

- hisobot davrlariga muvofiq RMASHIQT, ASHIQT va MIS faoliyatining yakunlarini umumlashtiradi, o‘zining quyi tuzilmalaridan kerakli ma‘lumotlarni so‘rab oladi;

- RMASHIQT, ASHIQT va MIS ishiga oid O‘zR IIV rejalari, O‘zR IIV rahbariyatining farmoyishlari va buyruqlari bo‘yicha tadbirlarni bevosita ijro etadi yoki ijro etilishini tashkil etadi;

- tahlil etish asosida o‘z tuzilmalarining faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan takliflarni O‘zR IIV tezkor yig‘ilishlarida yoki O‘zR IIV kollegiyasida IIV rahbariyati tomonidan ko‘rib chiqib, O‘zR IIV asosiy tadbirlari rejasiga yoki O‘zR IIVning boshqa maqsadli rejalariga kiritish uchun tayyorlaydi;

- RMASHIQTning muammoli masalalarni hal qilish bo‘yicha; yarim yillik; istiqbolli; alohida muammolar bo‘yicha tadbirlar rejalarini ularning to‘la hajmida va belgilangan muddatlarda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- O‘zR IIV, IIB boshqa xizmatlari va bo‘linmalarining o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha hujjatlarini ishlab chiqishda RMASHIQT vakolatlari qismida ishtirok etadi;

- O‘zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish idoralari, boshqa vazirliklar va idoralarning ekspertlik muassasalari, O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-amaliy muassasalari va tashkilotlari, O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning o‘quv yurtlari bilan ekspertlik faoliyatini uning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha takomillashtirish manfaatida o‘zaro faoliyatni amalga oshiradi;

- quyi tuzilmalariga tashkiliy-uslubiy masalalar bo‘yicha yordam ko‘rsatadi.

Respublika Markaziy Shaxsni identifikatsiyalash avtomatlashtirilgan tizimi (SHIAT)ning portret identifikatsiyasi bo‘yicha avtomatlashtirilgan ish joylari (AIJ)

«Ma‘mur»ning avtomatlashtirilgan ish joyi (AIJ):

- tizim ish sozligini har sutkalik nazorat qilish;
- tizim ishlamay qolishi va buzilishini belgilab olish;
- ta‘mirlash-profilaktika ishlarining hisobini yuritish;
- hisob-ro‘yxatga olish jurnallarini yuritish:
- tezkor jurnal;
- ma‘lumotlarni kiritish, almashtirish va yo‘q qilish operatsiyalarini hisobga olish jurnali;
- tizim jurnali;
- hisobot shakllarini tayyorlash;
- rejali hisobot;
- tezkor hisobot;
- tizimga ruxsat etilmagan (ichki va tashqi) kirish holatlari ustidan nazorat;
- ma‘lumotlar bazalarini nazoratli ko‘rib chiqish;
- RMASHIQT ma‘lumot bazalarida saqlanadigan ma‘lumotning rejali o‘zgartirilishini o‘tkazish zarur bo‘lganda choralarni ko‘rish – olib tashlash (yo‘q qilish), ko‘chirish va hokazolar;
- ASHIQT va RMASHIQT ma‘lumot bazalarida kerakli o‘zgartirishlarni boshqarish;
- chop etish (qog‘ozdagi nusxalarini olish).

«Nazorat» AIJ:

- O‘zR IIV ASHIQT, XCHK va FBdan keluvchi ma‘lumotlarni tekshirish/nazorat qilish va RMASHIQT ma‘lumotlar bazalariga kiritish;
- «Kiritish» AIJ darajasida tuzatish (ruxsat etilgan doirada) mumkin bo‘lgan hollarda kiritilayotgan (yoki kiritilgan) ma‘lumotning haqqoniy-
ligi va sifatini nazorat qilish.

«Kiritish» AIJ:

- O‘zR IIV ASHIQT, XCHKFB dan keluvchi, shuningdek ichki ishlar idoralari tezkor-tergov apparatlari, Interpol MMB, boshqa davlatlarning huquqni muhofaza qilish idoralari va boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralarning topshiriqlari bo‘yicha ma‘lumotlarni kiritish;

- planshetli skaner yordamida, videoyozuv (analogli va raqamli) kadrlarini, raqamli fotoapparatlar (uyali telefonlar va hokazo) kadrlarini bevosita kiritish, matnli ma‘lumotlarni klaviatura yordamida kiritish;

- moddiy ma‘lumot tashuvchilaridan (lazer disklari, magnit tasmlari va hokazo) ma‘lumotlarni kiritish;

Izoh: kiritishda «Nazorat» AIJ orqali kiritiladigan ma‘lumotlarni nazorat qilish majburiydir.

«Ekspert» AIJ:

- reytinglari qiymatining pasayishi tartibida joylashtirilgan tanib olish uchun nomzodlar tasvirlarini ko‘rib chiqish;

- identifikatsiya belgilarini ko‘rib nazorat qilish;

- tadqiqot natijalarini tashabbuskorga yoki manfaatdor tuzilmaga yuborish (berish) uchun qog‘ozda nusxasi shaklida tayyorlash uchun ishlatiladigan formatlashtirilgan chop etish shakllarini kiritish va saqlash, shuningdek istalgan shakldagi zaruriy rasmlarni tayyorlash;

- tashabbuskorlarning so‘rovlarini bajarish natijalari yuzasidan belgilangan shakl bo‘yicha ekspertlik xulosalarini tayyorlash;

- yuqoridagi avtomatlashtirilgan jurnallarda izlash natijalarini qayd etish.

«Fotorobot» AIJ:

- jabrlanuvchilar yoki guvohlar tomondan qiyofani tasvirlash asosida fotorobotni (subyektiv portretni) tuzish;

- yuzning tayanch tasvirini tanlash va keyinchalik maksimal o‘xshashlikka erishish uchun yanada ishlov berish uchun milliy belgilariga hamda yuqoridagi millatlarning jinsiga ko‘ra tasvirlarning standart to‘plamlaridan foydalanish;

- identifikatsiya ma‘lumotlar bazasi bo‘yicha izlashning salbiy natijasi bo‘lgan holda olingan subyektiv portretni identifikatsiya qilinuvchi ma‘lumotlar bazasiga keyinchalik identifikatsiya uchun kiritish;

- fotorobot tuzilishi holatlari to‘g‘risidagi ilova matn ma‘lumotini kiritish;

- fotorobot tuzish natijalari bo‘yicha materiallarni tayyorlash;

- hisob-hisobot hujjatlarini yuritish.

**6-mavzu. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
X.SULAYMANOVA NOMIDAGI RESPUBLIKA SUD-
EKSPERTIZA MARKAZINING ZAMONAVIY
IMKONIYATLARI**

Ma’ruzaning rejası:

1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi X.Sulaymanova nomi-
dagi Respublika sud-ekspertiza markazi (RSEM)da o‘tkaziladigan
ekspertiza turlari.

2. RSEMning ekspertizalarning yangi turlarini amalda joriy etish
bo‘yicha ilmiy-tadqiqot faoliyati.

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi X.Sulaymanova nomidagi
Respublika Sud-ekspertiza markazi (RSEM)da o‘tkaziladigan
ekspertiza turlari**

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
X.Sulaymanova nomli Respublika sud ekspertiza markazida quyidagi tur
ekspertizalar bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkaziladi:

1. Kriminalistik ekspertizalar:

- sud xatshunoslik ekspertizasi;
- hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi;
- sud-ballistik ekspertizasi;
- trasologik ekspertizasi;
- sud-tuproqshunoslik ekspertizasi;
- ekologik ekspertizasi;
- tovarshunoslik ekspertizasi;
- narkotik va dorivor vositalar, psixotrop moddalar, neft mahsulotlari

ekspertizasi;

2. Injener-texnik ekspertizalar:

- sud-avtotexnik ekspertizasi;
- yong‘in-texnik ekspertizasi;
- sud-qurilish-texnik ekspertizasi;
- sud-erga oid ekspertiza;

3. Boshqa turdagi sud ekspertizalari:

- sud-filologik ekspertizasi;
- sud-siyosatshunoslik-lingvistik ekspertiza;
- sud-iqtisodiy ekspertizasi;
- sud-fonografikekspertizasi;
- biologik ekspertizasi;

- genetik ekspertiza (odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi);
- er uchastkalariga egalik huquqining qiymatini ekspert baholash ekspertizalari;
- tashqi savdo aloqalarini sud-iqtisodiy ekspertizasi;
- sud-ekologik ekspertizasi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 14-noyabr-dagi 321-sonli qarori bilan tasdiqlangan dasturning 4-bandining ijrosi bo‘yicha 6 ta turdagi yangi ekspertiza tadqiqotlarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha:

– raqamli texnologiyalar asosida audio va video-manbalar, shuningdek, elektr akustika montaji belgilarini kompleks ravishda tekshirish yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilib, olingan natijalar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqildi;

– er uchastkalariga egalik huquqlari qiymatini aniqlash yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida metodik tavsiyalar ishlab chiqildi;

– tashqi savdo faoliyatining sud-iqtisodiy ekspertizasi bo‘yicha tashqi iqtisodiy aloqalarga oid metodni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilib, natijalari asosida metodik tavsiyalar tayyorlandi;

– sud-ekologik ekspertizasi (suv va tuproq tarkibini o‘rganish bo‘yicha)ga oid yangi zamonaviy metodlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi, natijada suv va tuproq tarkibida zaharli moddalarni aniqlashga qaratilgan zamonaviy tadqiq etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi;

– sud-siyosatshunoslik-lingvistik ekspertizasi bo‘yicha tegishli ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilib, olingan natijalar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqildi;

– sud-filologik ekspertizasini o‘tkazish metodikasini ishlab chiqish maqsadida ilmiy izlanishlar olib borilib, ular asosida sud-filologik ekspertizasini o‘tkazish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Markaz tomonidan ishlab chiqilgan yangi metodlar, metodik tavsiyalar huquqni muhofaza qilish sohasi uchun katta ahamiyatga egaligi barcha manfaatdor idoralar tomonidan e’tirof etildi.

RSEMning ekspertizalarning yangi turlarini amalga joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot faoliyati

Hozirgi kunda Markazda ekspertizalarning quyidagi yangi turlarini amalga joriy etish bo‘yicha ilmiy ishlar olib borilmoqda:

– sud filologik ekspertizalari; – sud siyosatshunoslik lingvistik ekspertiza; – sud-ekologik ekspertiza; – raqamli texnologiyalar asosida audio va video manbalar, shuningdek elektroakustik montaj belgilarini tekshirish; – tashqi savdo aloqalarini sud-iqtisodiy ekspertizasi; – er uchashtalariga egalik huquqining qiymatini ekspert baholash ekspertizasi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomli Respublika sud ekspertiza markazida, sud ekspertiza sohasini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib boriladi:

- o‘zbek tilida, lotin alifbosida bajarilgan qo‘lyozma matnlar ijrochisining jinsini aniqlash bo‘yicha metodika ishlab chiqish;
- o‘zbek tilida lotin alifbosida, atayin o‘zgartirilgan yozuv bilan bajarilgan qo‘lyozma matnlarning tadqiqotlari;
- O‘zbekistonda odam DNKsi Y-xromosomasi bo‘yicha populyasiyasining tadqiqotlari;
- narkotik vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarning mikro miqdorini tadqiqotlari metodlarini takomillashtirish;
- bosma qurilmalar va printer rusumini identifikatsiya qilish maqsadida, turli printerlarda bosilgan matnlardagi shtrixlarning tuzilishini tadqiqotlari;
- yangi rusumdagi avtomashinalar protektorlari shinalarining katalogini yaratish;
- sud-ballistik tadqiqotlari bo‘yicha otuvchini aniqlash maqsadida elektron mikroskopiyani qo‘llash imkoniyatlarini takomillashtirish;
- trasologik ekspertizalarning ma’lumotli axborot fondini yaratish;
- o‘simlik va hayvonlar moylarining sud-ekspertiza tadqiqotlari metodikasini ishlab chiqish va takomillashtirish;
- turli markadagi bo‘yoqlar bilan bo‘yalgan yung tolalarning taqqoslash tadqiqotlari uchun spektral metodlarni kriminalistik ekspertiza tadqiqotlarida foydalanish va bu kabi tadqiqotlarni o‘tkazish;
- «UzGM» rusumli avtomobillarning tormoz tizimi xususiyatlarini tadqiqotlari;
- bank sohasidagi iqtisodiy jinoyatlarni sodir etishda ishlatiladigan hujjatlar tadqiqotlari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- baholashning bozor iqtisodiyoti metodlari bo‘yicha qurilish obyektlarini baholash metodikasi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- raqamli tashuvchilarda mavjud bo‘lgan o‘zbek tilidagi og‘zaki matn yoki fonogrammalarga tozalash vositalari (filtrlar)ni ta’sirining tadqiqotlari.

Markazda sud ekspertiza xizmatining kadrlar potensialini mustahkamlashga oid faoliyat ham olib boriladi. Ekspertiza sohasining 10dan ortiq turi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati tizimidagi sud ekspertlarini ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha maxsus kurslar o'tkaziladi.

Shu bilan birga, sud-ekspertlarini dunyoning rivojlangan mamlakatlariida tegishli malaka oshirishlari (stajirovkalari)ni tashkil etish bo'yicha, undan tashqari, xalqaro ilmiy-amaliy forumlarda ishtirok etishlari bo'yicha ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu faoliyat doirasida 2013-yil fevral oyida Markaz xodimlari Amerika kriminalistlarining 65-konferensiyasida (Vashington) ishtirok etdilar.

Bundan tashqari, Germaniya Adliya vazirligi qoshidagi Xalqaro huquqiy hamkorlik Fondining taklifiga binoan, Markazning mutaxassislari Germaniyaning Frankfurt, Visbaden va Drezden shaharlarida joylashgan ekspertiza muassasalarida DNK va fonografik tadqiqotlar sohasini o'rganish yuzasidan xizmat safarida bo'ldilar va tajriba almashib keldilar.

Hozirgi kunda Markazda sud-ekspertiza xizmatining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, sud-ekspertiza laboratoriyalarini joylashtirish va jihozlash bo'yicha xalqaro standartlar talabiga to'liq javob beradigan yangi bino qurilishi ishlari boshlab yuborilgan. Markazning mintaqaviy bo'limlarini, qo'shimcha turdagi ekspertizalarini o'tkazish imkoniyatini yanada oshirish maqsadida moddiy-texnik jihozlash ishlari jadal olib borilmoqda. Markaz faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish ishlari boshlab yuborilgan. Shuningdek, Markazning qurilmalari bazasi (kriminalistik texnika, ehtiyot qismlar va sarf materiallari)ni modernizatsiya qilish, Markazda yangi turdagi ekspertizalarni tashkil etish va DNK ma'lumotlari bo'yicha milliy bazasi (genom informatsiya)ni yaratish bo'yicha zamonaviy jihozlar va ularni sarf materiallari bilan ta'minlash bo'yicha faoliyat olib borilmoqda.

Yuqoridagilardan tashqari, Markaz tomonidan huquqiy targ'ibot ishlari olib boriladi. 2013-yilda O'zbekistonda sud-ekspertizasining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari» mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi. Markazning Internet tarmog'idagi Veb-saytini yangilash bo'yicha ishlar nihoyasiga etkazildi va bu sayt

muntazam ravishda yangilab boriladi. Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari ishtirokida muntazam ravishda seminar, davra suhbatlari va ma'ruzalar tashkil etiladi.

Markazda 2014-yil davomida 10 ta xodim asosiy va 7 ta xodim qo'shimcha ekspert mutaxassisligi bo'yicha tayyorlandi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 16-dekabrdagi 300-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq Davlat sud eksperti sifatida attestatsiyadan o'tkazildi.

Markazning 75 ta xodimi o'z egallab turgan lavozimiga loyiqligi bo'yicha attestatsiyadan o'tkazildi.

Markaz viloyat bo'linmalarining 19 ta xodimi Markazning bosh laboratoriya va bo'limlarida malaka oshirdilar.

7-mavzu. EKSPERT-KRIMINALISTIKA XIZMATINING ICHKI ISHLAR ORGANLARI BOSHQA XIZMATLARI BILAN HAMKORLIGI VA HUQUQIY ASOSLARI

Ma'ruzaning rejasi:

1. Ekspert-kriminalistika xizmatining ichki ishlar organlari boshqa xizmatlari bilan hamkorligi va huquqiy asoslari.
2. Ekspert-kriminalistika xizmatining tergov harakatlaridagi ishtiroki.
3. Tergov-tezkor guruhi topshiriqlari bo'yicha kriminalistik vositalarni qo'llash.
4. Ekspert-kriminalistik xizmatlari xodimlarining tezkor-qidiruv tadbirlarida ishtiroki.
5. Ekspert-kriminalistika xizmatining jinoyatlarning oldini olish bo'yicha faoliyatlari.
6. Ichki ishlar organlari xodimlarini o'qitish, ekspert kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va o'qitish faoliyatidagi hamkorlik.

Ekspert-kriminalistika xizmatining ichki ishlar organlari boshqa xizmatlari bilan hamkorligi va huquqiy asoslari

Ekspert-kriminalistika xizmatlarining ichki ishlar idoralarining boshqa (tergov, tezkor-qidiruv xizmati, patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jazoni ijro etish va boshqa) xizmatlari bilan o'zaro hamkorligini ma'muriy jihatdan o'zaro bog'liq bo'lmagan ikki obyektlar – ekspert-kriminalistika xizmatlari bilan tergov; tezkor-qidiruv xizmati; patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash; huquqbuzarliklarning oldini olish; jazoni ijro etish va boshqa xizmatlarning jinoyatlarni ochish va tergov qilish, jinoyatlarni sodir etishga engillik yaratgan sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish, ekspert kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va o'qitish hamda ichki ishlar idoralari xodimlarini o'qitish, shuningdek tashkiliy va boshqa tadbirlar olib borishda ekspert-kriminalistika vosita va metodlarni qo'llashdan iborat bo'lgan, qonun va me'yoriy hujjatlarga asoslangan hamda kelishilgan holdagi faoliyati sifatida tushunish mumkin.

Bu kabi **hamkorlikning subyektlari** bo'lib tergov; tezkor-qidiruv xizmati; patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash; huquqbuzarliklarning

oldini olish; jazoni ijro etish va boshqa xizmatlar va ekspert-kriminalistika xizmatlari hisoblanadi¹.

Ekspert-kriminalistika xizmatlar va ichki ishlar idoralarining boshqa (tergov, tezkor-qidiruv xizmati, patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jazoni ijro etish va boshqa) xizmatlari xodimlarining huquq va majburiyatlari ushbu xizmatlarda yagona pirovard maqsad – jinoyatlarning oldini olish, ochish va tergov qilish, jinoyatchilarni qidirish (ushlash)ning mavjudligi bilan ifodalanadi.

Jinoyatlarning oldini olish, ochish, tergov qilish, jinoyatchilarni qidirish yoki ushlashda ekspert-kriminalistik vosita va metodlarini qo‘llashning yoki texnik-kriminalistik ta‘minotning qonun va qonunosti me‘yoriy hujjatlarda belgilangan tartibda amalga oshirishning **majburiy**ligi hamkorlik subyektlari uchun umumiy hisoblanadi. Hamkorlik subyektlari ushbu hamkorlik aloqalarini tiklash va davom ettirish, shuningdek uni amalga oshirishda o‘ziga xos **huquqlarga** ega.

Ekspert-kriminalistika xizmatlar va ichki ishlar idoralarining boshqa (tergov, tezkor-qidiruv xizmati, patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jazoni ijro etish va boshqa) xizmatlari **hamkorligining obyekt**lari bo‘lib esa jinoyatlarni ochish va tergov qilish, jinoyatlarni sodir etishga engillik yaratgan sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish, ekspert kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish va o‘qitish hamda ichki ishlar idoralari xodimlarini o‘qitish, shuningdek tashkiliy va boshqa tadbirlar olib borishda ekspert-kriminalistika vosita va metodlarni qo‘llash maqsadidagi ekspert-kriminalistika vosita va metodlarni birgalikda samarali qo‘llash yoki texnik-kriminalistik ta‘minoti hisoblanadi.

Ekspert-kriminalistika xizmatlar va ichki ishlar idoralarining boshqa (tergov, tezkor-qidiruv xizmati, patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jazoni ijro etish va boshqa) xizmatlari **hamkorligining predmet**i ushbu xizmatlarning dalillarni yig‘ish, tekshirish va ulardan foydalanish bo‘yicha birgalikdagi faoliyati natijasida olingan jinoyat hodisasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar hisoblanadi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashishda ekspert-kriminalistika xizmatlar va ichki ishlar idoralarining boshqa (tergov, tezkor-qidiruv xizmati, patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini

¹ *Ивашко В.А. и др.* Деятельность экспертно-криминалистических подразделений органов внутренних дел по применению экспертно-криминалистических методов и средства в раскрытии и расследовании преступлений. – М., 1996. – С.14.

olish, jazoni ijro etish va boshqa) xizmatlari **hamkorligining tashkiliy asoslariga** quyidagilar kiradi:

- hamkorlik ishtirokchilari tomonidan bajarilayotgan harakatlar va tadbirlar maqsad hamda vazifalarining yagonaligi;

- tomonlarning hamkorlik bo'yicha faoliyatlarining kelishilganligi;

- hamkorlik ishtirokchilari vazifalarining o'ziga xosligi;

- ishtirokchilar harakatlari shakllarining qat'iy belgilab qo'yilganligi yoki tomonlarning qat'iy belgilangan kafolatlarga egaligi;

- zarur va etarli kuch hamda vositalarning mavjudligi;

- ichki ishlar idoralarining boshqa (tergov, tezkor-qidiruv xizmati, patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jazoni ijro etish va boshqa) xizmatlarining topshirig'ini bajarishda ekspert-kriminalistika vosita va metodlarni tanlash huquqi ekspertda saqlangani holda tergovchining rahbarlik roli;

- hamkorlikning o'z vaqtida amalga oshirilishi.

Ekspert-kriminalistika xizmatlar va ichki ishlar idoralarining boshqa (tergov, tezkor-qidiruv xizmati, patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jazoni ijro etish va boshqa) xizmatlari hamkorligining subyektlarining o'zaro faoliyati protsessual va noprotsessual shakllarda kechadi.

Ushbu **hamkorlikning protsessual shakllarini** quyidagilarga ajratish mumkin:

1. Ushbu subyektlarning tergov harakatlarini o'tkazishdagi o'zaro faoliyatlari;

2. Ushbu subyektlarning kriminalistik ekspertizalar o'tkazishdagi o'zaro faoliyati.

Hamkorlik, ushbu hamkorlikning amalga oshirish vaqti bo'yicha *uch turga* bo'linadi:

- *doimiy* (bir necha o'zaro o'xshash jinoyatlarni ochish maqsadida tuziladigan tezkor-tergov guruhi tarkibida birgalikda ishlaganda, birgalikda kasbiy tayyorgarlik jarayonida va hokazolar);

- *epizodik* (bir necha tergov harakatlarini amalga oshirishda, tergovchi tomonidan to'xtatib qo'yilgan jinoyat ishlari bo'yicha qidiruv ishlarini amalga oshirishda, birgalikda tashkiliy-metodik ishlarni bajarishda va hokazolar);

- bir martalik (alohida tergov harakatiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishda, kriminalistik ekspertiza yoki tadqiqot o'tkazishda, texnik yoki tashkiliy turdagi bir martalik topshiriq bajarilganda va hokazolar).

Ekspert-kriminalistika xizmatlar va ichki ishlar idoralarining boshqa (tergov, tezkor-qidiruv xizmati, patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jazoni ijro etish va boshqa) xizmatlari hamkorligi subyektlarining o‘zaro faoliyatining ***noprotsessual shakllarini*** quyidagilarga ajratish mumkin:

1) ushbu subyektlarning tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishdagi o‘zaro faoliyatlari;

2) ushbu subyektlarning kriminalistik tadqiqotlar o‘tkazishdagi o‘zaro faoliyati.

Ekspert-kriminalistika xizmatlari, o‘zlarining xizmat vazifalarini bajarishlarida, ichki ishlar idoralarining barcha manfaatdor xizmatlari bilan hamkorlik qiladilar, jumladan:

- tergov apparatlari;
- tezkor-qidiruv xizmati;
- patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bo‘linmalari;
- profilaktika (katta) inspektorlari;
- jazoni ijro etish xizmatlari va boshqalar.

Ekspert-kriminalistika xizmatining tergov harakatlaridagi ishtiroki

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari ekspert-kriminalistika tizimlarining xodimlari O‘zbekiston Respublikasi IIB EKBga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarga muvofiq ilmiy-texnik vositalar va usullarni, maxsus bilimlar va malakalarni qo‘llash asosida jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishning eng to‘liq va samarali texnik-kriminalistik ta‘minoti maqsadida tergov harakatlarida ishtirok etish uchun jalb etiladi. O‘zbekiston Respublikasi IIB EKB xodimlarining tergov harakatlarida ishtirok etishi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligining, O‘zbekiston Respublikasi IIV me‘yoriy hujjatlari va «Ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistik xizmatlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risidagi Yo‘riqnoma»ning me‘yorlari va talablariga qat’iy amal qilish asosida amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi IIB EKB xodimlari tergov harakatlarida ishtirok etishga faqat tegishli ta‘limdan o‘tib, tergov harakatlarining texnik-kriminalistik ta‘minot huquqi uchun ruxsat olganidan keyingina qo‘yiladi. Ruxsat IIV, IIBB, IIB, Transport IIBning SHTBIX, EKB va tergov bo‘limlarining vakillari tarkibidagi komissiya tomonidan beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi IIB EKB mutaxassisining tergov harakatlarida ishtirok etishi uchun tegishli tarzda rasmiylashtirilgan yozma top-

shiriq asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tadbirda ishtirok etish uchun mutaxassis(lar) ajratilishi masalasini O'zbekiston Respublikasi IIB Ekspert-kriminalistika xizmatining boshlig'i yoki uning o'rinbosari hal etadi.

O'zbekiston Respublikasi IIB EKB mutaxassisi tergov harakatlarida ishtirok etish davomida, ushbu tergov harakatini bevosita amalga oshiruvchi rahbar (tergovchi)ning ko'rsatmalarini bajaradi.

Mutaxassis-kriminalist tadbirning tashabbuskoridan ushbu tadbirning texnik-kriminalistik ta'minotiga tegishli tashabbuskorlik maqsadida tadbirning xususiyatlarini o'rganish uchun zarur bo'lgan ma'lumotni talab etishga haqlidir (qanday texnika va boshqa vositalar talab etiladi, qancha mutaxassislar talab etilishi mumkin, tadbirning davomiyligi va hokazo). Bunda tashabbuskor tadbirning maxfiylikni fosh etuvchi muayyan manzillar, familiyalar va boshqa ma'lumotini ko'rsatmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasi IIB EKB rahbari yoki mutaxassisi tashabbuskorga rejalashtirilayotgan (o'tkazilayotgan) tadbirning to'liq va samarali amalga oshishi maqsadida ishlatilishi ko'zda tutilgan texnik va boshqa xil vositalarning taktik-texnik imkoniyatlarini tushuntirishga majbur. Ular shuningdek ushbu tadbir bo'yicha ilmiy-texni vosita va usullarni qo'llashning ishonchliligi va natija berishini oshirgan holda yuqori turuvchi Ekspert-kriminalistika xizmatining imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etishga haqlidir.

Tadbir tashabbuskori shuningdek tadbir boshlanishigacha unda ishtirok etish uchun ajratilgan mutaxassis-kriminalistga uning vazifalari va funksiyalarini, tadbirning boshqa ishtirokchilari bilan o'zaro ta'sirning tartibini va amalga oshiriladigan tergov harakati rejasining boshqa xususiyatlarini mutaxassis-kriminalistning ishtirokiga oid qismida tushuntirishga majbur.

O'zbekiston Respublikasi IIB EKB rahbari va mutaxassislari tadbirni amalga oshirish bosqichidan qat'i nazar tergov harakatlarida ishtirok etishdan quyidagi hollarda voz kechishga haqlidir:

- «Ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistik xizmatlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi Yo'riqnomaning 1.2-bandiga zid keluvchi hollarda;

- tashabbuskor qo'ygan vazifalarni texnik ta'minlash imkoni bo'lmaganda;

- qo'yilgan vazifalar mutaxassis-kriminalistning vakolatlari doirasidan chiqib ketgan xollarda, bu haqda u darhol tashabbuskorni va o'zining to'g'ridan-to'g'ri boshlig'ini xabardor etishi lozim.

Mutaxassis-kriminalist ilmiy-texnik vosita va usullarni qo'llashning ishonchligi uchun javobgar bo'lib, tergov harakatlarini amalga oshirishga tegishli tarzda tayyorlanishi lozim. Mutaxassis-kriminalistlar surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga jinoyatning sabablari, uning sodir etilishiga ko'maklashgan sharoitlarni aniqlashda va ularni bartaraf etish choralarini ishlab chiqishda yordam ko'rsatishi lozim.

Mutaxassis-kriminalistlar surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning ruxsatisiz surishtiruv va dastlabki tergov materiallarini oshkor etmasligi, ishni tergov qilishda va sud majlisi davomida belgilangan tartibga rioya qilishi lozim.

Mutaxassis-kriminalistlar tergov harakati amalga oshirilganidan keyin o'z boshlig'iga o'zining ishtirokining bergan natijalarini bildirishi lozim, bunda keyingi tergov harakatlarida ularga yo'l qo'ymaslik maqsadida salbiy jihatlarga alohida e'tibor berishi lozim.

EKB va tergov apparatlarining boshliqlari tergov harakatlarida ilmiy-texnik vosita va usullarni qo'llashning to'liqligini va yakuniy natija berishini oshirish maqsadida quyidagilarga majbur:

- shaxsiy tarkibni o'zaro o'qitishni, ushbu masalalar bo'yicha amaliy va nazariy bilimlarni qat'iy o'zlashtirishni ta'minlaydigan hajmlarda va davriylikda amalga oshirish;

- kamida yil choragida bir marta jinoyatchilikka qarshi kurashda ilmiy-texnik vosita va usullar qo'llanishining birgalikdagi tahlilini amalga oshirish, va shu asosda ushbu faoliyatni takomillashtirish choralari-ning majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Mutaxassisning hodisa joyini ko'zdan kechirishda ishlash tartibi:

EKB xodimlari navbatchilik qismi tomonidan shakllantiriladigan tergov-tezkor guruhi tarkibida texnik-kriminalistik yordam ko'rsatish uchun mutaxassis sifatida hodisa joyini ko'zdan kechirishda ishtirok etish uchun jalb etilishi mumkin. Hodisa joyini ko'zdan kechirish davomida EKB xodimi guruhning rahbari bo'lgan tergovchiga bo'ysunadi. Guruh rahbarining ruxsatisiz mutaxassisning ishiga boshqa shaxslarning aralashuvi qat'iy taqiqlanadi. Ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalari xodimlarini hodisa joyini ko'zdan kechirishda ishtirok etishga o'z vaqtida jalb etish uchun IIV, IIBB, IIB, Transport IIB, shahar-tuman-liniyalik IIBlarning navbatchilik qismlarida tergov-tezkor guruhlari tarkibidagi navbatchiligi tashkil etiladi. Ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalari xodimlarining navbatchilik qilish tartibi IIV, IIBB, IIB, Transport IIB, shahar-tuman-liniyalik IIB rahbariyati tomonidan ularning sonini va tezkor vaziyatni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Navbatchilik quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- ichki ishlar idoralarining navbatchilik qismlarida tergov-tezkor guruhlar tarkibida – respublika va viloyat markazlarida joylashgan hududiy ekspert-kriminalistik bo‘lim va bo‘linmalari shtatlarida kamida 6 ta ekspertlar mavjud bo‘lganda;

- qolgan hollarda ish joyida va ish vaqtdan tashqari uyda.

Shtatlar imkoniyati mavjud bo‘lganda va tezkor vaziyatga qarab navbatchilik qilish uchun ekspert-kriminalistik bo‘lim va bo‘linmalarining ikkita (yoki undan ortiq) xodimi navbatchilik vaqti va shakli aniqlangan holda ajratilishi mumkin. Quyidagi hollarda hodisa joyini ko‘zdan kechirishda ishtirok etish uchun ekspert-kriminalistik bo‘lim va bo‘linmalari xodimlari jadvaldan tashqari jalb etilishi mumkin:

- jadvalga muvofiq navbatchilik qilgan xodim boshqa ish bilan band bo‘lganda;

- hodisa to‘g‘risida axborotni ko‘zdan kechirishni muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun ma‘lum bilimlar sohasida (biologiya, fizika, kimyo, ballistika va hokazolar) bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassis ishtirok etishi maqsadga muvofiq ekanligi bildirilsa.

EKB mutaxassislari majburiy tartibda og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar holatlari bilan bog‘liq bo‘lgan hodisa joyini ko‘zdan kechirishga jalb etiladi. EKB mutaxassislari sud istiqboli bo‘lmaganligi ma‘lum bo‘lgan (jinoiy ish qo‘zg‘atilmaydigan) holatlar bo‘yicha hodisa joyini ko‘zdan kechirishda ishtirok etishga jalb etilmaydi. Ekspert-kriminalistik xizmati xodimining hodisa joyini ko‘zdan kechirishga chiqishi va uning xizmat joyiga qaytish maxsus avtomobilda – ko‘chma kriminalistik laboratoriyada (KKL) amalga oshiriladi. Bunday avtomobil bo‘lmaganda ekspert-kriminalistik bo‘lim va bo‘linmalari xodimi tergov harakati o‘tkaziladigan joyga idora bo‘yicha navbatchi bergan avtotransportda chiqadi. Navbatchi mutaxassisni tergov harakatini o‘tkazish joyiga o‘z vaqtida etkazish va orqaga qaytarish uchun javobgar bo‘ladi.

Hodisa joyida ishni boshlaganda mutaxassis dastlab jinoyatning holatlarini, uning sodir etilishi joyini qo‘riqlash yuzasidan harakatlarni o‘rganadi, hal qilinishi lozim bo‘lgan vazifalarni aniqlaydi. Vaziyatni aniqlaganidan keyin mutaxassis uning oldiga qo‘yilgan vazifalarning bajarilishni ta‘minlaydigan o‘z harakatlarining rejasini belgilaydi, ko‘zdan kechirish chegaralarini, izlar va ashyoviy dalillarni aniqlash, mustahkamlash va olib qo‘yish harakatlarining ketma-ketligini aniqlaydi.

Tergovchining o‘z rejasining mohiyatiga ko‘ra e‘tirozlari bo‘lmaganda mutaxassis uni bajarishga kirishadi. Hodisa joyini fotosuratga

va videotasvirga tushirish tartibi, mustahkamlanishi lozim bo'lgan obyektlarni tanlash, fotosuratga olish usuli va suratga olishning boshqa taktik vazifalari tergovchi bilan kelishilgan holda aniqlanadi. Fotosuratga olishning texnik xususiyatlarini (masofasi, suratga olish burchagi, yoritish turi va boshqalar) mutaxassisning o'zi belgilaydi. Mutaxassis vaziyatga o'zgartirish kiritishdan avval mo'ljallan beruvchi va atrofni ko'rib chiqish suratlarini oladi, keyin esa ko'zdan kechirish taktikasiga muvofiq tartib bo'yicha fotosuratga olishning tugunli, tafsilotli va boshqa zaruriy turlarini amalga oshiradi. Hodisa joyining ayrim tafsilotlari, ashyoviy dalillar ahamiyatiga ega bo'lgan izlar va predmetlar avval topilgan holatida suratga olinadi. Bundan keyin sud fotografiyasi tomonidan tavsiya etilgan, ularning individual xususiyatlarini eng to'liq, aniq va ma'lumot beruvchi tarzda qayd etishga imkon beradigan usullar (shu jumladan obyektlarning holatini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan) qo'llanadi.

Tergovchi tomonidan hodisa joyini ko'zdan kechirish bayonnomasi tuzilganda mutaxassis aniqlangan va olib qo'yilgan izlar va ashyoviy dalillarni ta'riflashda yordam ko'rsatadi, quyidagi ma'lumotlarni umumlashtiradi:

- izlar va ashyoviy dalillarni aniqlash uchun qo'llangan vositalar;
- ularni olib qo'yish usullari (butunlay olingan, quymasi tayyorlangan, predmet bilan yoki uning bir qismi bilan olib qo'yilgan va hokazo);
- izlar va ashyoviy dalillarni topish joyi (ular topilgan predmet, yuzaning turi va hokazo);
- izlar va ashyoviy dalillarning miqdori, ularning turi (ta'rifi, yassi yoki hajmli, statistik yoki dinamik, rangsiz yoki rangli va hokazo);
- shakli, o'lchami, individual xususiyatlari;
- izlarni qo'shimcha mustahkamlash usullari (fotosuratga olish, sxema tuzish, maxsus vositalar yordamida va hokazo).

Mutaxassis hodisa joyida tez orada jinoyatni fosh etish va jinoyatchilarni izlash topish maqsadida izlarning dastlabki tadqiqotini amalga oshiradi. Dastlabki tadqiqotning natijalari tergovchi va tezkor xodimga bildiriladi va keyinchalik hodisa joyini ko'zdan kechirishlarni ro'yxatdan o'tkazish jurnalida qayd etiladi. Zarur hollarda mutaxassis tergovchiga olib qo'yilgan izlar, quymalarni va boshqa ashyoviy dalillarni o'rashda yordam ko'rsatadi, va ekspertiza (tadqiqot) o'tkazilishi yoki kriminalistik kartoteka (kolleksiya) bo'yicha tekshirish to'g'risidagi qaror (tezkor xodimning yozma topshirig'i) bo'lganda ularni ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalariga etkazadi.

Hodisa joyini koʻzdan kechirish bayonnomasiga foto yoki video suratga olish qoʻllanishi maʼlumotlarini kiritish uchun mutaxassis tergovchiga fotoapparat yoki videokameraning, obyektivning nomi va tavsiflarini, yorugʻlik filtrining rusumi, yoritish sharoitlarini (sunʼiy yoritishda yorituvchilarning turini) tasmaning turini aytadi. Fotosuratga olish natijalari maxsus blankalarda fotojadvallar shaklida rasmiylashtiriladi va ularga tushuntirish yozuvlari ilova qilinadi. Fotojadvallarni VJKKda ishtirok etgan mutaxassis imzolaydi. Fotosuratga olishni bajargan mutaxassis tergovchiga fotojadvalni va negativlarni hodisa joyini koʻzdan kechirish tugagan paytidan boshlab bir sutkadan oshmagan muddatda, rangli fotomateriallarda bajarishda esa 2 sutkadan oshmagan muddatda taqdim etadi. Videoyozuvli tasma ekspert-kriminalistik boʻlim va boʻlinmalari videotekasida saqlanadi va tergovchining, surishtiruv oʻtkazuvchi shaxsning yoki sudning talabiga koʻra namoyish etish uchun taqdim etiladi. Videoyozuvni yoʻq qilish qonuniy kuchga kirgan hukm asosida ushbu dalilga daxldor qismida amalga oshiriladi. Fotojadval va negativlar ilova xati bilan tergovchiga yuboriladi yoki unga (yoki vakolatlangan shaxsga) fotoishlar va fotomateriallarni sarflashni roʻyxatdan oʻtkazish jurnalida imzo chektirib beriladi. Agar fotosuratga olish yoki videoyozuv natijalari qoniqarsiz boʻlsa (foto videoapparatura nosozligi, tasma nuqsoni va hokazolar tufayli) mutaxassis bu haqda tergovchiga fotosuratlar va videotasmani taqdim etish mumkin emasligining sabablarini koʻrsatgan holda yozma ravishda bildiradi.

Mutaxassis-kriminalistning soʻroq, yuzlashtirish, tanib olish uchun taqdim etish, hodisa joyida koʻrsatmalarni tekshirish, murdalar eksperimentatsiyasining texnik-kriminalistik taʼminotida ishtiroki:

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining tegishli moddalariga muvofiq dalillarni yigʻish bilan bogʻliq tergov harakatlarda ishtirok etishga mutaxassis(lar) va ekspert(lar) jalb etilishi mumkin. Ushbu tergov harakatlarni oʻtkazishda nutq va tasvirni mustahkamlash maqsadida ovoz yozish, videoyozuv, fotosuratga olish qoʻllanishi mumkin. Mutaxassis(lar)ga ushbu tergov harakatining oʻtkazilishi uchun masʼul boʻlgan va mutaxassis(lar) uning yozma topshirigʻi boʻyicha ishlagan tergovchi, surishtiruvchi, prokuror, sudning rahbarligi ostida vakolatlari doirasida texnik vositalarni qoʻllashdagina yuklatiladi.

Texnik vositalarni qoʻllash ularning turlari va tiplari, ishlatilgan axborot tashuvchilar (fototasma, videotasma, magnit tasmasi) koʻrsatilgan holda tegishli bayonnomalarda aks ettiriladi va mutaxassisning imzosi bilan tasdiqlanadi. Ovoz yozuvli magnit tasmasini saqlash joyi va tartibi masalasi tergov harakatining rahbari tomonidan mutaxassis mas-

lahati bilan hal etiladi. Videotasmalar O‘zbekiston Respublikasi IIB EKBda saqlanadi va vakolatli shaxsning talabiga ko‘ra namoyish etish uchun taqdim etiladi. Fotojadvallar 1 sutkadan oshmagan muddatda yoki ushbu jinoiy ish bo‘yicha dastlabki tergovning holatlari bilan belgilanadigan boshqa muddatlarda tayyorlanadi.

Ovoz yozish, videoyozuv, fotojadvallarni montaj qilish qat’iy taqiqlanadi. Asl nusxalardan ovoz va tasvirlar nusxasini olish ushbu jinoiy ishni yurituvchi tergovchi va boshqalarning yozma ko‘rsatmasiga binoan asl nusxa saqlanishi sharti bilan amalga oshiriladi va belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi. Zaruriyat qolmaganda axborot tashuvchilarni yo‘q qilish faqat ushbu jinoiy ish bo‘yicha materiallarni saqlash uchun mas’ul shaxsning asosli yozma ko‘rsatmasi bo‘yicha amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi IIV va IIB EKB mutaxassis(lar)i surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning iltimosiga ko‘ra ovoz yozish yoki videoyozuvni namoyish etishda yordam ko‘rsatadi. Axborot tashuvchilarni (fotosuratlar, magnit yozuvi yoki videoyozuv) tashabbuskorga texnika buzilishi, nosoz magnit tasmalari, videotasmalar, fototasmalar va hokazolar tufayli taqdim etish mumkin bo‘lmaganda mutaxassis bu haqda bevosita uz boshlig‘iga va tergov harakati tashabbuskoriga topshiriqni bajarish mumkin emasligining sabablarini ko‘rsatgan holda darhol bildirishi lozim. Sabablarning asosligi topshiriq bajaruvchining bevosita boshlig‘ining imzosi yoki bu sabablarni tasdiqlashi mumkin bo‘lgan boshqa mas’ul shaxs tomonidan tasdiqlanadi (idoradan tashqariga xizmat safarlariga chiqqanda).

Mutaxassis-kriminalistlarining tergov eksperimentida ishtiroki:

Ma’lum harakatlarni, tadqiq etiladigan voqeaning vaziyati va holatlarini tiklash maqsadida o‘tkaziladigan eksperimentlarni amalga oshirish va kerakli tajribalarni o‘tkazishda surishtiruvchi, tergovchi, sud unda ishtirok etish uchun tegishli mutaxassislar va ekspertlarni jalb etishi mumkin. Eksperimentning turiga qarab har xil texnik vositalar va maxsus bilimlar qo‘llanishi mumkin:

- harakatlar, tushuntirishlar va hokazolarni mustahkamlash uchun foto, video, ovoz yozish /suratga olish qo‘llanadi;

- ko‘rsatkichlar, tavsiflar va shu kabilarni aniqlash uchun tajribani o‘tkazishda (texnologik jarayon, voqea, masalan, YTHni tiklashda) ishtirok etish paytida ekspertlarning maxsus bilimlari, eksperimentning xususiyatiga mos keluvchi texnik vositalar O‘zbekiston Respublikasi IIB EKB imkoniyatlari va vakolatlari doirasida ishlatiladi. Bunda shuningdek mustahkamlash vositalari qo‘llanishi mumkin;

- Sxemalar, chizmalar, eksperimental quymalar va izlarni tayyorlash uchun tegishli vositalar.

Eksperimentning tashabbuskori undan avval jalb etiladigan mutaxassisni yoki ekspertni eksperimentning samarali texnik-kriminalistik ta'minoti va ushbu tergov harakatning maqsadiga erishish uchun zarur doirada materiallar va ma'lumotlar bilan tanishtirishi lozim. Zarur xollarda birgalikda harakat rejasi tuziladi. Mutaxassis yoki ekspert eksperimentning istalgan bosqichida uning obyektivligi va maksimal natija olish maqsadida uni o'tkazish yuzasidan tavsiyalar berishga haqli (O'zbekiston Respublikasi JPKning 15-moddasi) Eksperimentni o'tkazish tartibi va shartlariga rozi bo'lmagan holda ekspert bayonnomada o'zi alohida fikrini aks ettirishga haqlidir. Mutaxassis, ekspert eksperiment tashabbuskoriga kerakli tushuntirishlar berishi, uning eksperiment bilan bog'liq bo'lgan savollariga javob berishi lozim.

Mutaxassis-kriminalistlarning olib qo'yish va tintuvni o'tkazishda ishtiroki:

Olib quyishda predmetlar va hujjatlar ularni topish zaruratisiz olib qo'yilishini hisobga olib, ushbu tergov harakatida mutaxassislar olib qo'yish jarayonini mustahkamlash yoki buning uchun maxsus bilimlar kerak bo'lganda ekspert ishtirok etishi mumkin. Ikkala holda fotosuratga olish, zarur bo'lganda videoyozuv va magnit ovoz yozish qo'llanishi mumkin. Agar ishlab chiqarish texnologiyasida, ularning xususiyatlari haqida va hokazo maxsus bilimlarni talab etuvchi predmetlar, moddalar va shu kabilarni olib qo'yish amalga oshirilsa, bu holda olib qo'yishda ishtirok etish uchun tegishli yo'nalishdagi ekspert jalb etilishi mumkin yoki O'zbekiston Respublikasi IIB EKM mutaxassisi tashabbuskor chet tashkilotdan jalb etgan ixtisosli mutaxassis bilan birga olib qo'yishni amalga oshirishi mumkin. Olib qo'yish tashabbuskori EKB xodimini mutaxassis yoki ekspert tegishlicha narsalarni olishi maqsadida uning xususiyatlari haqida xabardor etishi lozim.

Mutaxassis zarur hollarda olib qo'yishda ishtirok etishga chet tashkilotlarning tegishli ekspertlari yoki mutaxassislarini jalb etishni tavsiya etishga haqlidir. Tintuv ish uchun muhim bo'lgan predmetlar, hujjatlar va shu kabilarni aktiv izlashni talab etadi, shuning uchun tintuvda ishtirok etuvchi EKB mutaxassisi tegishli vositalarga ega bo'lishi lozim:

- yashirin joylar va shu kabilarni topish, shuningdek predmetlar, hujjatlar va boshqalarni topilgan joylarini mustahkamlash uchun;

- fotoapparatlar, videokameralar, magnit ko'targichlar, shuplar, metall izlagichlar, asboblarni va shu kabilarga ega bo'lishi lozim.

Olib qo'yish yoki tintuvda ishtirok etuvchi mutaxassis yoki ekspert tashabbuskorga (rahbarga) olib qo'yilgan ashyoviy dalillarni isbotlash ahamiyatiga ega bo'lgan xususiyatlarini saqlash maqsadida o'rashda yordam beradi.

Ekspertizalarni bajarish, ashyoviy dalillarni qabul qilish va qaytarish tartibi:

Ashyoviy dalillar bilan bog'liq va ularning tegishlicha tadqiq etilishini talab etuvchi tergov savollarining hal etilishi EKB ekspertlariga yuklatilgan. Ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalarida an'anaviy: daktiloskopik, trasologik, xatshunoslik, hujjatlarni texnik tadqiq etish, ballistik, sovuq qurol, portretli, kimyoviy fizikaviy, oziq-ovqat, shuningdek maxsus: fizikaviy-kimyoviy, avtotexnik, oziq-ovqat, fonovideoskopik, elektrotexnik, sud-buxgalterlik, qurilish-texnik, kompyuter texnologiyalar va boshqa kriminalistik ekspertizalar tegishli mutaxassislar va kerakli jihozlar mavjud bo'lganda o'tkaziladi.

Ekspertizalar qat'iy jinoiy-protsessual qonunchilikning talablariga muvofiq o'tkaziladi. Ekspertizani o'tkazish uchun surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi asos bo'ladi. Ekspertizalar faqat Nizomi va tarkibi belgilangan tartibda tasdiqlangan ekspert-malakaviy komissiya tomonidan berilgan ekspertizalarni mustaqil bajarish huquqini beruvchi tegishli rasmiy guvohnomaga ega bo'lgan ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalari xodimlari tomonidan o'tkaziladi. Boshqa davlatlar tomonidan berilgan guvohnomalar O'zbekiston Respublikasi IIV tizimining ekspert-malakaviy komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Ekspertizalar zudlikni talab etuvchi hollardan tashqari materiallar kelib tushishi tartibida va 15 sutkadan oshmagan muddatda bajariladi. Ekspertiza o'tkazish muddati ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalari rahbariyati tomonidan ekspertizani tayinlagan shaxs bilan kelishilgan holda ekspert tadqiqotining hajmini hisobga olgan holda uzaytirilishi mumkin. Ekspertizani bajarish muddati materiallarning ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalariga kelib tushgan kundan uning bajarilishi kunigacha hisoblanadi. Xulosa berish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha materiallarni taqdim etish haqida so'rov yuborilgan holda ekspertiza o'tkazish to'xtatiladi.

Tergovchi (prokuratura, sud, surishtiruv) qaroriga muvofiq materiallarni ekspert tadqiq etish natijalari belgilangan namunadagi blankadan foydalangan holda ekspertning xulosasi shaklida rasmiylashtiriladi. Qimmatbaho metallar va toshlar, ulardan buyumlar, qimmatli qog'ozlar,

o‘zbek va chet el pullari, narkotik va psixotrop moddalar, qurol, raqamli va boshqa shu kabi ashyoviy dalillar tashabbuskor ishtirokida qabul qilinadi. Ekspertizaga kelgan materiallar ilova hujjatlaridagi ro‘yxatiga nisbatan etishmagan yoki mos bo‘lmagan hollarda bu haqda ikki nusxadagi dalolatnoma tuziladi, ulardan biri tashabbuskorga beriladi.

Narkotik va psixotrop moddalar, qimmatbaho metallar, qimmatbaho toshlar, valyuta majburiy tartibda tashabbuskor oldida tortiladi va (yoki) sanaladi va taqdim etilgan ashyoviy dalillarning tergovchi qaroridagi tegishli ma‘lumotga muvofiqligi haqida ikki nusxada dalolatnoma tuziladi, ulardan biri tashabbuskorga beriladi. Bunday yozuvni solishtirish ishtirokchilarining imzolari bilan tasdiqlangan holda tergovchining ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qarorining orqasida yozilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Tadqiqot obyektlarining saqlanishi yoki buzilishi uchun ushbu ekspertizani bajarishga topshirilgan ekspert javobgar bo‘ladi. Ashyoviy dalillar ularning buzilishi yoki yo‘qolishini inkor etuvchi sharoitlarda saqlanishi lozim. Kichik o‘lchamli obyektlar muhrlanadigan seyflarda saqlanishi lozim. Tez buziladigan ashyoviy dalillar tegishli sovetgichda saqlanishi lozim. Katta o‘lchamli ashyoviy dalillar ularning saqlanishini ta‘minlaydigan kirish cheklangan xonalarda saqlanishi lozim.

Ekspertiza obyektlarini saqlashda ularning kimyoviy mos kelishiga, xususiyatlarining o‘zgarishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy o‘zaro ta‘siriga xavfsizlik talablari, qurol-yarog‘lar, portlash qurilmalari va portlovchi moddalar va shu kabilarni saqlashga oid maxsus talablar va ashyoviy dalillarning xususiyatiga muvofiq boshqa talablar hisobga olinishi lozim. Tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlari ekspertiza tayinlagan shaxsning roziligi bilan yo‘q qilinadi. Bu haqda ekspertning xulosasida ko‘rsatiladi. Barcha qaytarilishi lozim bo‘lgan buyumlar (ashyoviy dalillar) o‘raladi, muhrlanadi va ekspertizani o‘tkazgan ekspertning imzosi bilan tasdiqlanadi. Ekspertizani tayinlagan shaxs pochta orqali jo‘natilishi mumkin bo‘lmagan holda ashyoviy dalillar olinishini ta‘minlaydi. Ashyoviy dalillarni ekspert-kriminalistik bo‘lim va bo‘linmalari kolleksiyalari, kartotekalariga joylashtirish uchun berilishi jinoiy ishni ko‘rib chiqqan sud qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi. Sud qarorigacha – tergovchi yoki surishtiruvni olib boruvchi shaxs bilan kelishish asosida. Vaqtincha saqlash holida ashyoviy dalillar sud yoki tergovchi talabiga ko‘ra zudlik bilan beriladi.

Bajarilgan ekspertizalar va ashyoviy dalillar, agar ular pochtdan jo‘natilmasa, ekspertizani tayinlagan shaxsga ekspertiza va tadqiqotni ro‘yxatdan o‘tkazish jurnalida imzo chektirib beriladi va qaytariladi,

ularning olinganligi, familiyasi, ismi, ota ismi, shaxsni tasdiqlovchi hujjat raqami, olish sanasi ko'rsatiladi. Pochta orqali jo'natilmaydi: narkotik moddalar va psixotrop moddalar, qimmatbaho metallar, toshlar va ulardan buyumlar, valyuta, qurol-yaroqlar, portlovchi moddalar bo'lgan obyektlar. Bunday ashyoviy dalillarning ekspert xulosasi bilan birga olinishini tashabbuskorlar ta'minlaydi.

Ashyoviy dalillarning ekspert tadqiqotlarining sifati va to'liqligini nazorat qilish va ularning kasbiy mahoratini takomillashtirish maqsadda yuqori turuvchi EKBlar eng malakali xodimlarga topshiriladigan ekspertlar xulosalariga taqriz yozishni amalga oshiradilar. Taqriz yozish taqriz yozuvchi bo'linmaning yozma yoki og'zaki so'roviga ko'ra amalga oshiriladi. Taqriz yozish uchun taqriz qilinayotgan ekspertiza turining har bir dasturidagi ekspertizalarining 3 tadan nusxasi (fotojadvallari, tergovchi qarori bilan) taqdim etiladi. Taqriz natijalari bo'yicha ma'lumotnoma tuziladi, unda xatolarning batafsil bayoni, joriy etishga tavsiya etilishi mumkin bo'lgan ijobiy ish tajribani qayd etish, yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatishga oid takliflar (joyida, yuqori turuvchi EKB negizida malaka oshirish) bo'lishi lozim. Ma'lumotnoma ikki nusxada tayyorlanadi va taqriz yozgan hamda tekshiriluvchi EKB rahbarlariga ma'lumot uchun va tegishli qaror qabul qilish uchun taqdim etiladi.

Tergov-tezkor guruhi topshiriqlari bo'yicha kriminalistik vositalarni qo'llash

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari jinoyatchilikka qarshi kurash maqsadida jinoyatlarni sodir etishga tayyorgarlikda yoki jinoyatlarni sodir etishda gumonlanadigan shaxslarga nisbatan, shuningdek jinoyatchilikning oldini olish maqsadida tezkor-texnik vositalarni qo'llangan holda tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshiradilar (bu fuqarolarning sog'lig'iga zarar etkazmasligi sharti bilan).

Tezkor apparatlar tezkor-texnik vositalar qo'llashni tashkil etganda qat'iy ravishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, O'zbekiston Respublikasi IIV me'yoriy hujjatlariga va ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistik xizmatlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi Yo'riqnomaga tayanadi.

Tezkor-texnik vositalarning qo'llanishi faqat jinoyatchilikka qarshi kurash, davlat manfaatlari, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi. Ayrim shaxs-

lar va muassasalar toifalariga nisbatan tezkor-texnik vositalarni qo'llash cheklovlari tegishli qonunchilik-me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Tezkor-texnik vositalar odatda qat'iy maxfiy ravishda qo'llanadi. Ularni qo'llash natijasida olingan ma'lumotlar faqat jinoyatlarni fosh etish va oldini olish, yashiringan jinoyatchilarni qidirish uchun ishlatiladi, ular bilan begona shaxslarni tanishtirish va ularni boshqa davlat idoralariga, jamoat tashkilotlariga berish qat'iyan taqiqlanadi.

Tezkor-texnik vositalarning oshkora va nooshkor (maxfiy) ishlatilishining tartibi O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralarning tezkor xizmatlari va bo'linmalarining faoliyatini tartibga soluvchi tegishli me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida olingan ashyoviy dalillar faqat qonunchilikda ko'zda tutilgan hollarda jinoiy ishga qo'shib qo'yilishi mumkin. Asosiy tezkor-texnik vositalarga quyidagilar kiradi:

- tasvirlarni mustahkamlash vositalari: fototexnika; videotexnika; kichik o'lchamli reproduksiyaviy (nusxa olish) texnikasi;

- ko'rib kuzatish vositalari: binokllar, ko'rish trubalari, tungi ko'rish asboblari (jumladan tasvirni mustahkamlash bilan), periskopik tizimlar, videotizimlar, endoskoplar va hokazo;

- magnit yozuv apparaturasi: kichik o'lchamli va tashiladigan magnetofonlar va diktofonlar;

- magnit yozuv vositalari bilan radiomikrofonlar, yo'naltiriluvchi mikrofonlar, kichik mikrofonlar va hokazo;

- aloqa va radionazorat vositalari: radiostansiyalar;

- maxsus qabul qilgichlar bilan radiomikrofonlar;

- radiosignal qurilmalari;

- mikrouzatgichlar;

- qabul qilish-yozish qurilmalari va hokazolar;

- ovoz va video yozuvchi va radio uzatuvchi moslamalarni aniqlash va izlash uchun, xonalarni shovqinlashtirish, ma'lumotni ruxsat etilmagan yozib olish uchun moslamalar;

- skanerlovchi qabul qilish moslamalari va boshqa ruxsat etilmagan ma'lumotlarni olishga qarshi turish moslamalari;

- izlash asboblari: metall izlagichlar; magnit ko'targichlar;

- ko'chma rentgen qurilmalari;

- turli detektorlar (portlovchi moddalarga, pulning haqiqiyiligiga, olmoslarni aniqlashga va boshqalar);

- maxfiy daktiloskopiya uchun vositalar;

- maxsus kimyoviy vositalar (MXV): lyuminoforlar; bo‘yoqlar; MXV bilan belgilangan obyektlarni aniqlash uchun kichik o‘lchamli ultrabinafsha yoritgichlar;

- subyektiv portretlarni tuzish, hisobda turuvchi shaxslarning videotekalari va fotoalbomlarini yuritish uchun texnik vositalar majmualari;

- tezkor qiziqish tug‘diruvchi moddiy obyektlar bo‘yicha ekspertiza tadqiqotlarni o‘tkazish uchun laboratoriya uskunalarning majmualari (ekspertizalarni bajarishga o‘xshash).

Tezkor-tergov faoliyatida qo‘llanishi «Ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistik xizmatlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Yo‘riqnomaning 1.3-bandiga zid kelmaydigan boshqa vositalar ham qo‘llanishi mumkin.

Tezkor-texnik vositalar quyidagilar uchun mo‘ljallangan:

- jinoiy faoliyat holatlari va unga u yoki bu shaxslarning aloqadorligini ko‘rsatuvchi ma‘lumotlarni aniqlash va mustahkamlash uchun;

- tezkor-qidiruv faoliyatida va jinoyatni tergov qilish jarayonida ishlatilishi mumkin bo‘lgan voqealar, faktlar va materiallarni mustahkamlash uchun;

- tayyorlanayotgan jinoyatning oldini olish uchun;

- jinoyatlarni sodir etishga ko‘maklashuvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun.

Tezkor-texnik vositalar qo‘llanishining yuqori samaradorligi quyidagilar bilan ta‘minlanadi:

- ichki ishlar idoralarining tezkor-texnik vositalar bilan jihozlanganligining tegishli darajasi;

- xodimlarning muayyan tezkor-texnik vositalar turlarining imkoniyatlari va ularni qo‘llash amaliyoti haqidagi mustahkam bilimlari;

- tezkor xizmatlar va bo‘linmalar xodimlarining o‘z va yuqori turuvchi ichki ishlar idoralarining ishlarni samarali amalga oshirish uchun tezkor-qidiruv tadbirlarini tezkor-texnik vositalar bilan ta‘minlash borasidagi ilmiy-texnik imkoniyatlaridan xabardorligi;

- tezkor-texnik vositalar qo‘llangan ishlarni amalga oshirishning protsessual qoidalarini va ulardan foydalanish natijalarini rasmiylashtirishni bilishi;

- ichki ishlar idoralarining tezkor-qidiruv faoliyatida tezkor-texnik vositalardan foydalanadigan shaxsiy tarkibining kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish;

- tezkor va ekspert-kriminalistik bo‘lim va bo‘linmalarining ichki ishlar idoralarining ilmiy-texnik imkoniyatlarini huquqni qo‘llash

amaliyotida to‘liq va samarali qo‘llashi masalalari bo‘yicha faol o‘zaro munosabati.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda tezkor-texnik vositalarni qo‘llashni tashkil etish uchun quyidagilar javobgar bo‘ladi:

- O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikalari IIVlarida – vazirning birinchi o‘rinbosarlari va ularning tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi JQ va TQKBB apparatlari bo‘yicha birinchi o‘rinbosarlari;

- Toshkent shahar IIBB, viloyatlar IIB, Transport IIB, jazoni ijro etish bo‘linmalarida – ichki ishlar boshqarmalari boshliqlarining birinchi o‘rinbosarlari va ularning JQ va TQK apparatlari, tezkor tuzilmalar bo‘yicha o‘rinbosarlari (xizmat majburiyatlarining taqsimotiga muvofiq);

- shahar-tuman-liniyalid idoralarda – boshliqlar yoki ularning o‘rinbosarlari (xizmat majburiyatlarining taqsimotiga muvofiq).

Ekspert-kriminalistik xizmatlarining rahbarlariga quyidagilar yuklatiladi:

- O‘zbekiston Respublikasi IIV tizimining tezkor tuzilmalari ish amaliyotida Tezkor-texnik vositalar qo‘llashning ilmiy-texnik masalalari bo‘yicha uslubiy rahbarlik qilish;

- o‘z xodimlarining tezkor apparatlarning topshiriqlari bo‘yicha muayyan tezkor-qidiruv tadbirlarida tezkor-texnik vositalardan foydalan-gan holda ishtirok etishini ta‘minlash;

- tezkor-qidiruv faoliyatida tezkor-texnik vositalardan amaliy foyda-lanishni ta‘minlaydigan ichki ishlar idoralarining shaxsiy tarkibini o‘qitish;

- ichki ishlar idoralarining tezkor-qidiruv faoliyatini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik vositalar bilan ta‘minlashni tashkil etish;

- jinoyatchilikka qarshi kurashda tezkor-texnik vositalar qo‘llash-ning tahlili asosida huquqni qo‘llash amaliyotida tezkor-texnik vositalar-dan foydalanishning to‘liqligi va samaradorligini oshirish choralarining majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- bo‘ysunuvchi bo‘linmalarining tezkor-xizmat faoliyatining bu yo‘na-lishi bilan bog‘liq bo‘lgan huquq ijodkorligi va uslubiy ishlarini ta‘minlash;

Quyidagilarni ta‘minlash yuklatiladi:

- 1) tezkor-texnik vositalarni qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar va bo‘linmalarga yordam ko‘rsatish;

- 2) tezkor-texnik vositalar hisobga olinishi, saqlanishi, foydalanishi-ning to‘liqligi va samaradorligining holati ustidan hamda ichki ishlar idorasining shaxsiy tarkibining tezkor-texnik vositalar bilan bog‘liq bo‘l-gan masalalar bo‘yicha kasbiy tayyorgarligi ustidan kuratorlik nazorati.

Ekspert-kriminalistik xizmatlari xodimlarining tezkor-qidiruv tadbirlarida ishtiroki

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari jinoyatchilikka qarshi kurash maqsadida jinoyatlarni sodir etishga tayyorgarlikda yoki jinoyatlarni sodir etishda gumonlanadigan shaxslarga nisbatan, shuningdek jinoyatchilikning oldini olish maqsadida tezkor-texnik vositalar (TTV)ni qo‘llangan holda tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshiradilar (bu fuqarolarning sog‘lig‘iga zarar etkazmasligi sharti bilan).

TTV qo‘llanishi faqat jinoyatchilikka qarshi kurash, davlat manfaatlari, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi. Ayrim shaxslar va muassalar toifalariga nisbatan TTVlarni qo‘llash cheklovlari tegishli qonunchilik-me‘yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

TTVlar odatda qat‘iy maxfiy ravishda qo‘llanadi. Ularni qo‘llash natijasida olingan ma‘lumotlar faqat jinoyatlarni fosh etish va oldini olish, yashiringan jinoyatchilarni qidirish uchun ishlatiladi, ular bilan begona shaxslarni tanishtirish va ularni boshqa davlat idoralarga, jamoat tashkilotlariga berish qat‘iyan taqiqlanadi.

TTVning oshkora va nooshkor (maxfiy) ishlatilishining tartibi O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralarning tezkor xizmatlari va bo‘linmalarining faoliyatini tartibga soluvchi tegishli me‘yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida olingan ashyoviy dalillar faqat qonunchilikda ko‘zda tutilgan hollarda jinoiy ishga qo‘shib qo‘yilishi mumkin.

Asosiy tezkor-texnik vositalarga quyidagilar kiradi:

- tasvirlarni mustahkamlash vositalari: fototexnika; videotexnika; kichik o‘lchamli reproduksiyaviy (nusxa olish) texnikasi;
- ko‘rib kuzatish vositalari: binokllar, ko‘rish trubalari, tungi ko‘rish asboblari (jumladan tasvirni mustahkamlash bilan), periskopik tizimlar, videotizimlar, endoskoplar va hokazo;
- magnit yozuv apparaturasi: kichik o‘lchamli va tashiladigan magnitofonlar va diktofonlar;
- magnit yozuv vositalari bilan radiomikrofonlar, yo‘naltiriluvchi mikrofonlar, kichik mikrofonlar va hokazo;
- aloqa va radionazorat vositalari: radiostansiyalar;
- maxsus qabul qilgichlar bilan radiomikrofonlar;
- radiosignal qurilmalari;
- mikrouzatgichlar;

- qabul qilish-yozish qurilmalari va hokazolar;
- ovoz va videoyozuvchi va radio uzatuvchi moslamalarni aniqlash va izlash uchun, xonalarni shovqinlashtirish, ma'lumotni ruxsat etilmagan yozib olish uchun moslamalar;
- skanerlovchi qabul qilish moslamalari va boshqa ruxsat etilmagan ma'lumotlarni olishga qarshi turish moslamalari;
- izlash asboblari: metall izlagichlar; magnit ko'targchlar;
- ko'chma rengen qurilmalari;
- turli detektorlar (portlovchi moddalarga, pulning haqiqiyiligiga, olmoslarni aniqlashga va boshqalar);
- maxfiy daktiloskopiya uchun vositalar;
- maxsus kimyoviy vositalar (MXV): lyuminoforlar; bo'yoqlar; MXV bilan belgilangan obyektlarni aniqlash uchun kichik o'lchamli ultrabinafsha yoritgichlar;
- subyektiv portretlarni tuzish, hisobda turuvchi shaxslarning videotekalari va fotoalbomlarini yuritish uchun texnik vositalar majmualari;
- tezkor qiziqish tug'diruvchi moddiy obyektlar bo'yicha ekspertlik tadqiqotlarni o'tkazish uchun laboratoriya uskunalarining majmualari (ekspertizalarni bajarishga o'xshash).

Ekspert-kriminalistika xizmatining jinoyatlarning oldini olish bo'yicha faoliyatlari

Jinoyatlarning oldini olish ichki ishlar organlarini eng muhim vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual qonunchiligida surishtiruv va tergov organlariga jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan yoki imkon bergan shart-sharoitlar va sabablarni aniqlash vazifalarini ham yuklaydi. Bunday sabab va shart-sharoitlarni aniqlashning vositalari bo'lib protsessual harakatlar, bunday sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish vositalari bo'lib esa – tergovchi, surishtiruvchi yoki prokurorning tegishli korxonalar, muassasa yoki tashkilotlarga yuborgan va kerakli profilaktik choralar-tadbirlar ko'rish to'g'risidagi taqdimnomalari hisoblanadi. Shunday qilib, jinoyatlarning oldini olish faoliyati to'liq bo'lmasada, jinoyat-protsessual qonunchilikda o'z aksini topgan, chunki jinoyatlarning oldini olish faoliyatining shakllari juda ko'p va xilma-xildir¹.

¹ *Капитонов В.Е.* Взаимодействия следственных органов и экспертно-криминалистических подразделений по профилактике преступлений: Учебное пособие. – М., 1999. – С.180; *Рыжков В.Л.*, Профилактическая деятельность эксперта-криминалиста: Учебное пособие. – М., 2001. – С.81.

Ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistik xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish faoliyatlaridagi ishtiroki, xuddi boshqa sud-ekspertiza muassasalarining shunday faoliyati kabi qonunchilikda o'z aksini topmagan. Ammo shunga qaramay, ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistik xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga imkon bergan yoki engillik yaratgan shart-sharoitlarni aniqlash bo'yicha faoliyatlari istisno emas. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 184-moddasida ekspert tomonidan turli ekspertizalar va tadqiqotlar o'tkazish chog'ida, o'ziga berilmagan savollarga tegishli bo'lmagan, ammo ko'rilayotgan jinoyat ishiga aloqador birorta shart-sharoitlar aniqlansa, u holda ekspert o'zining xulosasida ushbu shart-sharoitlarni bayon etish huquqiga ega deb belgilangan. Bunday shart-sharoitlar bo'lib, hech shubhasiz, jinoyatlarning sodir etilishiga imkon bergan yoki engillik yaratgan sabab va shart-sharoitlar hisoblanadi.

Ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistik xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish faoliyatlaridagi ishtiroki O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan 2001-yil 21-avgustdagi buyruqda batafsil ko'rib chiqilgan. Ushbu buyruq bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Ekspert-kriminalistika xizmatlarining faoliyatlarini takomillashtirish bo'yicha Yo'riqnoma tasdiqlangan. Ushbu Yo'riqnomada ekspert-kriminalistlarning asosiy vazifalari sifatida jinoyatlarning sodir etilishiga imkon bergan yoki engillik yaratgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ko'rsatilgan¹.

Ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistik xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish faoliyatlarining me'yoriy-huquqiy asosi sifatida, aynan ana shu buyruq bilan tasdiqlangan Yo'riqnomani keltirish mumkin. Chunki ushbu Yo'riqnomada ichki ishlar idoralari ekspert-kriminalistik xizmatlarining ekspertizalar o'tkazish bo'yicha qoidalar belgilangan hamda ushbu qoidalarda ekspertga, uning asosiy vazifalaridan biri sifatida jinoyatlarni va ma'muriy huquqbuzarliklarning sodir etilishiga imkon bergan yoki engillik yaratgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish topshiriladi. Bundan tashqari, ushbu yo'riqnomaning 4-bo'limi ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistik xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish faoliyatlaridagi ishtiroki masalalariga bag'ishlangan.

¹ Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирининг 2001 йил 21 августдаги 230-сонли буйруғининг 4-илоvasи (Ўзбекистон Республикаси ИИВ Эксперт-криминалистик хизматларининг ишлари бўйича йўриқнома).

Shunday qilib, ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistik xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish faoliyatlari quyidagi me'yoriy va huquqiy asoslarga ega:

- ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistik xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish faoliyatlari ijtimoiy munosabat bo'lgani uchun ushbu faoliyatning birinchi huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hisoblanadi;

- ichki ishlar idoralarining ekspert-kriminalistik xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish faoliyatlari tegishli moddalar bilan tartibga solingani uchun O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi ikkinchi huquqiy asos bo'lib hisoblanadi;

- ekspert-kriminalistlarning asosiy vazifalari sifatida jinoyatlarning sodir etilishiga imkon bergan yoki engillik yaratgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ko'rsatilganligi uchun, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan 2001-yil 21-avgustda chiqarilgan buyrug'i ham yana bir huquqiy asos bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga imkon bergan yoki engillik yaratgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish faoliyatini tashkil etishning asosiy prinsiplari (qonuniyatlari) quyidagilardan iborat:

- rejalilik;
- o'z vaqtidalilik;
- jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishni nazoratini ta'minlash;
- jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarni o'tkazishda ekspert-kriminalistika xizmatlarini tergov va operativ-qidiruv xizmatlari bilan hamkorligini ta'minlash;
- jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiya va takliflarning maqsadga muvofiqligi va iqtisodiy jihatdan tejamliligi¹.

¹ *Стегнова Т.В., Тертышник В.М.* Профилактика преступлений: Учебник. – М., 2005. – С.287; *Сырков С.М.* Профилактическая деятельность ОВД: Учебное пособие. – М., 1998. – С.78.

Ekspert-kriminalistika xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha faoliyatlarini tashkil etish bo'yicha metodlarini tanlash, ushbu faoliyatni amalga oshirish bosqichlariga bog'liq bo'ladi. Ekspert-kriminalistika xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha faoliyatlarini rejalashtirishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- ekspert-kriminalistika xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha faoliyatlarini qamrab olgan rejalar (yillik, yarim yillik, kvartallik va boshqalar) tuzish;

- ekspert-kriminalistika xizmatlari xodimlarining funksional majburiyatlari va vazifalarini, ularni jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha faoliyatlarida ham faol ishtirok etishini hisobga olgan ishlab chiqish;

- jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarning namunaviy va istiqbolli dasturlarini ishlab chiqish¹.

Ekspert-kriminalistik xizmatlarning jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha faoliyatlarini tashkil etish bo'yicha tadbirlarni bajarishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan yoki imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash;

- ekspert-kriminalistika xizmati xodimlarining mutaxassis sifatida tergov harakatlarida ishtirok etishlari;

- ekspert-kriminalistika xizmati xodimlarining ma'lumot – maslahat berish faoliyati;

- ekspert-kriminalistika xizmati xodimlarining huquqiy targ'ibot ishlarida ishtirok etishlari (xodimlarning aholi o'rtasida ma'ruzalari, ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlari va shu kabilar);

¹ *Капитонов В.Е. Взаимодействия следственных органов и экспертно-криминалистических подразделений по профилактике преступлений: Учебное пособие. – М., 1999. – С.183.*

- jinoyatlarning oldini olish muammolari bo'yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlar o'tkazilishi;

- ekspert-kriminalistika xizmati xodimlarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar (prokuratura, sud) davlat idoralari va jamoat tashkilotlari, ichki ishlar organlarining boshqa xizmatlari tomonidan o'tkaziladigan jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarda ishtirok etishi;

- tegishli vazirliklar va idoralarning mansabdor shaxslariga qimmatbaho qog'ozlar va hujjatlarni qalbakilashtirish usullari, yopish moslamalarini ochish usullari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish;

- ekspert-kriminalistika xizmatlarining ish faoliyatiga jinoyatlarning oldini olish bo'yicha tergov va operativ qidiruv xizmatlari bilan hamkorlikning ilmiy asoslarini tatbiq etish;

- jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha faoliyatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- ekspert-kriminalistika xizmati, tergov apparatlari va operativ-qidiruv xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish masalalari bo'yicha qo'shma majlis va yig'ilishlari, maxsus mashg'ulotlari va ilmiy-amaliy anjumanlarini tashkil etish¹.

Ekspert-kriminalistika xizmati xodimlarining jinoyatlarini oldini olish faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirishda esa quyidagi metodlar qo'llanilishi mumkin:

- ekspert-kriminalistika xizmatlarining amaliy faoliyatini, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan shart-sharoitlar va sabablarni aniqlash maqsadida umumlashtirish va tahlil etish;

- ekspert-kriminalistika xizmati xodimlarining tergov harakatlarida mutaxassis sifatidagi jinoyatlarning oldini olish bo'yicha amaliy faoliyatining natijalarini tahlil etish;

- operativ qidiruv xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish maqsadlarida bergan topshiriqlariga ko'ra ekspert-kriminalistik vosita va metodlarni qo'llash amaliyotini o'rganish va umumlashtirish;

- jinoyatlarning oldini olish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirilishining muddatlari va sifatini nazorat qilish;

¹ Рыжков В.Л. Профилактическая деятельность эксперта-криминалиста: Учебное пособие. – М., 2001. – С.84.

- tergov va operativ qidiruv xizmatlari rahbarlariga, Ekspert-kriminalistika xizmati xodimlari tomonidan jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha muayyan faoliyatni amalga oshirish imkoniyatlari va ushbu imkoniyatlardan foydalanish holatlari haqida xabar berish¹.

Ekspert-kriminalistika xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha faoliyatlari ikki shaklda amalga oshiriladi: protsessual va no-protsessual.

Ekspert-kriminalistika xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha faoliyatlarining protsessual shakli – bu ekspert-kriminalistning O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksida belgilangan tarzda faoliyatlaridan iborat, ya’ni:

- tergov harakatlarida mutaxassis sifatida ishtirok etish jarayonida jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash;

- tegishli qaror asosida yoki o‘z tashabbusi bilan kriminalistik ekspertizalar va tadqiqotlar o‘tkazishda jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash.

Ekspert-kriminalistika xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha faoliyatlarining noprotsessual shakli – protsessual shakldagi faoliyatdan shunisi bilan farq qiladiki, faoliyatning ushbu turi amaldagi qonunchilikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilmagan, bu faoliyat faqat me‘yoriy-huquqiy hujjatlardagina o‘z aksini topgan². Ushbu faoliyatning quyidagi turlari mavjud:

- ma’lumot-maslahat berish faoliyati;
- ekspertiza amaliyotini tahlil etish va umumlashtirish;
- kriminalistik vosita va metodlarni qo‘llash amaliyotini o‘rganish va umumlashtirish;
- huquqiy tashviqot va targ‘ibot etish faoliyatida ishtirok etish;
- nazariy va amaliy tadqiqotlar hamda tajribalar o‘tkazish;
- jinoyatlarning oldini olish tadbirlarida bevosita ishtirok etish;
- tegishli organlar va tashkilotlarning mansabdor shaxslari bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish.

Ekspert-kriminalistika xizmatlarining protsessual shakldagi jinoyatlarning oldini olish faoliyati samarali hisoblanadi. Masalan, ekspert-kriminalistika xizmatining xodimi birorta jinoyat ishi yuzasidan tegishli

¹ Порошин Г.Н. Исследование места происшествия следователем и экспертом-криминалистом органов внутренних дел. – Волгоград, 1979.

² Рыжков В.Л. Профилактическая деятельность эксперта-криминалиста: Учебное пособие. – М., 2001. – С. 67-68.

tergov harakatlarida mutaxassis sifatida ishtirok etar ekan (xususan, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda), ushbu turdagi jinoyatni sodir etishiga engillik yaratgan yoki imkon bergan sharoitlarni aniqlashi mumkin, so'ng ularni tahlil etib va umumlashtirib, ushbu sharoitlarning ko'rilayotgan turdagi jinoyat uchun tipik holatlarini ajratib oladi va tegishli taklif va tavsiyalarni o'ziga qamrab olgan ma'lumotnoma tuzadi.

Ekspert-kriminalistika xizmatlarining jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sharoitlarni aniqlash bo'yicha faoliyatining ikkinchi bosqichida, Ekspert-kriminalistika xizmatining xodimlari va tergovchilar tomonidan, aniqlangan shart-sharoitlar asosida jinoyatlarning oldini olish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi, asoslanadi va shakllantiriladi. Tergov va ekspert-kriminalistik xizmatlarining amaliy faoliyatini umumlashtirish va tahlil etish natijasida ishlab chiqilgan jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha ba'zi taklif va tavsiyalar ichki ishlar organlarining boshqa xizmatlari uchun ham zarur bo'lishi mumkin. Shuning uchun bunday taklif va tavsiyalar, ularning amalda joriy etilishi bo'yicha ma'lumotlarni tegishli barcha organlarning rahbarlariga etkazish lozim (masalan, IIV tizimidagi oliy o'quv yurtlariga, IIV Akademiyasiga).

Ekspert-kriminalistika xizmatlarining jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sharoitlarni aniqlash bo'yicha faoliyatining uchinchi (jinoyatlarning oldini olish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni amalga tatbiq etish) bosqichida, tergovchi asoslangan taqdimnomani tegishli organga taqdim etadi; operativ xizmat boshlig'i tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradi (agar jinoyatlarni oldin olish bo'yicha kerakli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida, uning topshirig'iga ko'ra, texnik-kriminalistik vosita va metodlarni qo'llash amaliyoti umumlashtirilgan va tahlil qilingan bo'lsa¹).

Ekspert-kriminalistika xizmatlarining jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sharoitlarni aniqlash bo'yicha faoliyatining oxirgi to'rtinchi (jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sharoitlarni bartaraf etish hamda jinoyatlarning oldini olish bo'yicha taklif va tavsiyalarni amalga oshirish jarayonini aniqlab borish) bosqichida, tergovchi ekspert-kriminalistika xizmatining tegishli xodimini yoki uning boshlig'ini, jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sharoitlarni bartaraf etish

¹ *Фёдоренко Ю.Д.* Применение технико-криминалистических средств в деятельности по профилактика преступлений. – Волгоград, 1999. – С.46.

bo'yicha bergan taklif va tavsiyalarini amalga joriy etish natijalari bo'yicha xabardor qiladi. Bundan tashqari, ekspert-kriminalistika xizmatining xodimi yoki uning boshlig'i, ushbu faoliyatning natijalarini tergovchidan so'rab bilishi ham mumkin.

Ekspert-kriminalistika xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha faoliyatlarini takomillashtirish uchun, birinchi navbatda bu xizmatning tergov apparatlari bilan uzviy va samarali hamkorligini ta'minlash lozim. Ekspert-kriminalistika xizmatlarining tergov apparatlari bilan jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha faoliyatlarida o'zaro samarali hamkorligini ta'minlash uchun esa ushbu xizmatlarning rahbarlari mazkur faoliyatni doimiy nazorat ostiga olishlari lozim. Bundan tashqari, ichki ishlar organlarining va uning tizimidagi tergov bo'limlarining boshliqlari tergovchilarning jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha kiritgan taqdimnomalari qay darajada amalga oshirilayotganligini doimiy ravishda nazorat qilishlari lozim¹. Agar ushbu faoliyat talab darajasida bo'lmasa, prokuratura va davlat hokimiyati organlari orqali ushbu taqdimnomalarning talab darajasida bajarilishiga erishishlari kerak.

Yuqorida sanab o'tilgan muammo va kamchiliklarning asosi jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha faoliyatlarning subyektlarining o'z vakolatlarini, ushbu faoliyatning me'yoriy-huquqiy va tashkiliy asoslarini bilmasliklaridadir. Shuning uchun tergov apparatlari va ekspert-kriminalistika xizmatlarining rahbarlari o'z xodimlariga ushbu faoliyatning me'yoriy – huquqiy hamda tashkiliy asoslari bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil etishlari lozim deb o'ylaymiz.

Ekspert-kriminalistika xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha faoliyatda ishtirok etishi ekspert-kriminalistika xizmatlarining qilingan ishlar bo'yicha hisobotlarining tegishli bo'limlarida bayon etiladi.

¹ *Капитонов В.Е.* Взаимодействия следственных органов и экспертно-криминалистических подразделений по профилактике преступлений: Учебное пособие. – М., 1999. – С.91.

Ekspert-kriminalistika xizmatining rahbari (boshlig'i) yoki uning topshirig'i bilan Ekspert-kriminalistika xizmatining birorta xodimi, ushbu xizmat xodimlarining jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha faoliyatda ishtirok etganligi haqidagi barcha ma'lumotlarni tahlil qiladi va umumlashtiradi (odatda, Ekspert-kriminalistika xizmatining bir yillik ish natijalariga ko'ra). Mazkur tahliliy ish jarayonida fikrimizcha quyidagi ko'rsatkichlar tahlil etilishi lozim:

- ekspert-kriminalistika xizmatining xodimlari ishtirok etgan jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarning soni;

- oldi olingan yoki jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlar aniqlangan jinoyatlarning soni va turlari;

- oldi olingan yoki jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlangan jinoyatlarning sodir etilgan joy va hududlari;

- ekspert-kriminalistika xizmatlari xodimlari tomonidan, jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha berilgan taklif va tavsiyalarning samaradorlik darajasi (jinoyatlarning oldini olish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning soni, ularning mazmun-mohiyati, tergovchilarning jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha kiritgan taqdimnomalarida o'z aksini topgan va ekspert-kriminalistlar tomonidan bildirilgan tadbirlarning miqdori, jinoyatlarning oldini olish bo'yicha taklif qilingan va amalga oshirilgan taklif va tavsiyalarning nisbati, va nihoyat, ushbu jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha berilgan taklif va tavsiyalar natijasida soni qisqargan jinoyatlarning kamayish darajasi kabi ko'rsatkichlar hisobga olinishi lozim)¹.

Shunday qilib, ekspert-kriminalistika xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon

¹ Рыжков В.Л. Профилактическая деятельность эксперта-криминалиста: Учебное пособие. – М., 2001. – С.121; Стегнова Т.В., Тертышник В.М. Профилактика преступлений: Учебник. – М., 2005. – С.120

bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha faoliyatlarida ham, ushbu xizmatlarning ekspert-kriminalistik vosita va metodlarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan boshqa har qanday faoliyatda ham, ushbu xizmatlar rahbarlarining alohida o'rnini ta'kidlash joizdir. Chunki, Ekspert-kriminalistika xizmatining har qanday faoliyatni tashkil etish uchun mavjud kuch va vositalarni to'g'ri taqsimlash va ulardan unumli foydalanish, ichki ishlar idoralarining boshqa xizmat, bo'lim, bo'linmalari bilan uzviy hamkorlikni tashkil etish, o'zining qo'l ostidagi xodimlarni ushbu hamkorlikdan kelib chiqadigan barcha funktsiya va vazifalarni samarali bajarishlarini nazorat qilish, xizmatning har qanday faoliyatidagi, jumladan, ekspert-kriminalistika xizmatlarining jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishiga engillik yaratgan va imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha faoliyatlaridagi yuzaga keladigan muammo va kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularni tez va samarali bartaraf etish aynan shu rahbarning vazifasidir.

Ichki ishlar organlari xodimlarini o'qitish, ekspert kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va o'qitish faoliyatidagi hamkorlik

O'zbekiston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika xizmatlari ichki ishlar idoralari xodimlarini o'qitish, shuningdek ekspert kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va o'qitish faoliyatida O'zbekiston Respublikasi IIV Shaxsiy tarkib bilan ishlash xizmati hamda O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

Ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalari xodimlari ichki ishlar idoralari xodimlarining texnik-kriminalistik tayyorgarligi darajasini oshirish maqsadida ularni o'qitishda ishtirok etadilar. Mashg'ulotlar O'zbekiston Respublikasi IIV uslubiy tavsiyalariga muvofiq ishlab chiqilgan mavzular bo'yicha o'tkaziladi. Shu maqsadlarda ichki ishlar idorasining rahbariyati tomonidan tasdiqlangan rejalar bo'yicha tezkor-qidiruv va tergov bo'linmalari xodimlarining qisqa muddatli (3-5 kunlik) amaliy stajirovkalari o'tkaziladi. Ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalarining imkoniyatlariga qarab guruhli yoki individual stajirovkalar o'tkazilishi mumkin.

O'qitishning asosiy shakli kriminalistik vositalar va usullarni qo'llashning amaliy vaziyatiga yaqinlashtirilgan sharoitlarda amaliy mashg'ulotlar bo'ladi. Ekspert-kriminalistik bo'lim va bo'linmalari xodimlaridan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazishga boshqa vazirliklar, idoralarning mutaxassisleri jalb etilishi mumkin.

Ekspert-kriminalistik bo‘lim va bo‘linmalari xodimlarini tanlash va o‘qitishda IIV, IIBB, IIB, Transport IIB katta ekspertlarining lavozimlariga ixtisoslashishning tasdiqlangan ro‘yxatiga muvofiq, oliy ma’lumotga va ekspert tayyorgarligiga ega bo‘lgan shaxslar qo‘yiladi. IIV, IIBB, IIB, Transport IIB ekspertlari, ichki ishlar shahar-tuman-liniyali idoralarining katta ekspertlari lavozimlariga oliy yoki o‘rta maxsus ma’lumotga ega bo‘lgan, shaxslar qo‘yiladi, ekspert tayyorgarligiga ega bo‘lgan shaxslarga afzallik beriladi.

Istisno tariqasida katta ekspertlar va ekspertlar lavozimlariga ekspert tayyorgarligisiz oliy yoki o‘rta maxsus ma’lumotli shaxslar tayinlanishi mumkin. Bu hollarda ular ikki yil ichida yarim yillik ixtisosli tayyorgarlikdan o‘tishi va belgilangan tartibda kamida bitta ekspertiza turini bajarish huquqiga ega bo‘lishi lozim¹. Ichki ishlar shahar-tuman idoralarida texnik-kriminalistlar lavozimlariga o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan va maxsus dastur bo‘yicha boshlang‘ich tayyorgarlikdan o‘tgan shaxslar qo‘yiladi.

Ekspertlik tayyorgarligi bo‘lmagan xodimga tajribali xodimlar orasidan murabbiy ekspert biriktiriladi. Murabbiy unga biriktirilgan xodimning individual o‘qishi rejasini tuzishi, unga nazariy kursni o‘zlashtirishda va kriminalistik texnika bilan ishlashning amaliy malakalarini egallashda yordam ko‘rsatishi, tayyorgarligining individual rejasining bajarilishi ustidan nazorat qilishi, rahbariyatga o‘qishning borishi haqida bildirib turishi lozim. Murabbiy ta‘lim oluvchini ekspertizalarni va boshqa ishlarni bajarishga jalb etadi.

Malaka oshirish ashyoviy dalillarni tadqiqot qilishning yangi uslubiyotlarini o‘zlashtirish yoki ekspertizalarning boshqa turlarini bajarish huquqini olish uchun tashkil etiladi. Malaka oshirishni (stajirovkani) tashkil etish u o‘tkaziladigan ekspert-kriminalistik bo‘lim va bo‘linmasi boshlig‘iga yuklatiladi.

O‘quv yurtlarida yig‘inlar hamda stajirovkalardan o‘tish yuzasidan buyurtmalar yuqori turuvchi ekspert-kriminalistik bo‘lim va bo‘linmalari rahbarlariga yuboriladi. O‘zbekiston Respublikasi IIV EKM kelib tushgan buyurtmalar asosida stajirovka rejasini tuzadi va uni O‘zbekiston Respublikasi IIV rahbariyatida tasdiqlatadi. Rejaning nusxasi barcha manfaatdor IIV, IIBB, IIB, Transport IIBlariga yuboriladi. U xodimni stajirovkaga yuborish uchun asos bo‘ladi.

¹ *Камишиников А.П. Основы управления в правоохранительных органах.* – М., 2004.

Ekspert lavozimiga maxsus tayyorgarliksiz tayinlangan xodimlar hodisa joyini ko‘zdan kechirish, boshqa tergov harakatlarida mutaxassislar sifatida mustaqil ishtirok etishga, tezkor-qidiruv bo‘linmalarining topshiriqlari bo‘yicha kriminalistik vosialar va usullarni qo‘llashga faqat ular ushbu ishlar yo‘nalishi bo‘yicha huquqiy asoslar va uslubiy materiallarni o‘rganishidan, amaliy malakani egallash maqsadida stajirovkadan o‘tganidan keyingina qo‘yiladi. Imtihon natijalari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi, u xodimning shaxsiy ish jildiga qo‘shib qo‘yiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2014.

Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 1 июндаги «Суд экспертизаси тўғрисида»ги Қонуни.

Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 1 июндаги «Суд экспертизаси тўғрисидаги қонуннинг қабул қилиниши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги Қонуни.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги суд-экспертлик фаолиятини янада такомиллаштириш тўғрисида»ги 2011 йил 23 августдаги ПҚ-1602-сонли Қарори.

Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг «Ички ишлар органларининг эксперт-криминалистик бўлинмаларини фаолиятини самарадорлигини ошириш тўғрисида»ги 2001 йил 21 августдаги буйруғи. – Т., 2001.

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг суд-экспертиза муассасаларида суд экспертизаларини ўтказиш тартиби тўғрисидаги Йўриқнома. – Т., 2011.

Х.Сулайманова номидаги Республика суд экспертиза маркази ҳақидаги Низом. – Т., 2004.

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг «Суд экспертиза маркази минтақавий бўлинмаларининг хизмат кўрсатиш ҳудудларини аниқлаш ҳақида»ги 2011 йил 27 апрелдаги 30-сонли буйруғи. – Т., 2011.

Белкин Р.С. Криминалистику на уровень современных задач борьбы с преступностью // Актуальные вопросы использования достижений науки и техники в расследовании преступлений органами внутренних дел (вопросы криминалистики). – М., 1990. – С.4.

<http://akadmvd.uz>. (Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси).

<http://lex.uz>. (Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси).

<http://www.uzscience.uz> (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Фан ва технологияларни ривожлантиришни мувофиқлаштириш қўмитаси).

MUNDARIJA

Kirish	3
<i>1-mavzu.</i> O‘zbekiston Respublikasi IIV Ekspert- kriminalistika xizmatining tizimi, tuzilishi va faoliyatining huquqiy asoslari	5
<i>2-mavzu.</i> O‘zbekiston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika xizmatining asosiy vazifa va funksiyalari.....	12
<i>3-mavzu.</i> O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika xizmatining ish faoliyati	21
<i>4-mavzu.</i> Ekspert-kriminalistika xizmatida tizimlarida nomzodlarni tanlash va shaxsiy tarkibni o‘qitish tartibi	25
<i>5-mavzu.</i> O‘zbekiston Respublikasi IIV EKMga bo‘ysunuvchi bo‘limlarning zamonaviy imkoniyatlari	34
<i>6-mavzu.</i> O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi X.Sulaymanova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining zamonaviy imkoniyatlari	41
<i>7-mavzu.</i> Ekspert-kriminalistika xizmatining ichki ishlar organlari boshqa xizmatlari bilan hamkorligi va huquqiy asoslari.....	46
Adabiyotlar ro‘yxati.....	76

MAMATQULOV To‘lqin Boyxo‘rozovich;
NURUMBETOVA Sadoqat Allyarovna

EKSPERT-KRIMINALISTIK FAOLIYAT

MA'RUZALAR KURSI

Muharrir S. S. Qosimov
Texnik muharrir D. R. Djalilov

Bosishga ruxsat etildi 08. 05. 2017. Nashriyot hisob tabag‘i 5,5.
Adadi 50 nusxa. Buyurtma № . Bahosi shartnoma asosida.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent shahri, Intizor ko‘chasi, 68.